

جدید

2025-yil 14-mart
№ 11(63)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

RASULNING PATIMATI

“...Patimat Rasulga begona emas, ovuldoshi, qarindoshi, bolaligida unga ergashib yuradigan, o'zidan 8 yosh kichkina jingalaksoch qizcha edi. Yillar o'tib o'qishni bitirib kelgan Rasul hovlida yurgan navrasta suluvni boshida tanimadi. Nahot o'sha men bolaligida yig'lasa ovutadigan, onasi biror yumush bilan chiqib ketsa qo'rib o'tiradigan jajji qizaloq Patimat bugun bo'yi yetib go'zal qizga aylangan bo'lsa deb hayron qoladi va unga nisbatan ko'nglida bir iliqlik tuyadi...”



(4-sahifada o'qing)

TAHLIL

FRANSIYAGA RASMIY TASHRIF:

STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI O'RNATILDI



Xabaringiz bor, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 11–13-mart kunlari davlat tashrifi bilan Fransiya Respublikasida bo'lib qaytdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 12-mart kuni boshlandi. Parijdagi Faxriylar uyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi o'tkazildi. Davlatimiz rahbarini Fransiya yetakchisi Emmanuel Makron kutib oldi.

Samarqand shahrida 2023-yil noyabr oyida o'tgan uchrashuv davomida erishilgan kelishuvlar amalga oshirilayotganini ikki tomon ham mamnuniyat bilan e'tirof etdi.

Tashrif davomida yurtboshimiz O'zbekiston – Fransiya investitsiya kengashini ta'sis etish va uning birinchi yig'ilishini joriy yil iyun oyida Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazish taklifini bildirdi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida tarixiy qarorni qabul qilishdi.

Oliy darajadagi uchrashuvda davlatimiz rahbari Prezident Emmanuel Makronga buyuk fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning o'zbek tiliga o'girilgan “Kulayotgan odam” romanining ilk nusxasini tuhfa qildi.

Shundan so'ng Fransiya ishbiarmon

doiralarning yetakchi vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Tashrif doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevni Fransiya Respublikasining oliy mukofoti – Faxriy legion ordeni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Yuksak mukofotni davlatimiz rahbariga Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tantanali ravishda topshirdi.

Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron Yelisey saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sharafiga davlat qabul marosimini uyushtirdi.

Qabulda O'zbekiston va Fransiya rasmiy delegatsiyalari a'zolari, taniqli madaniyat, san'at va fan arboblari, ishbiarmon doiralar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fran-

siyaga davlat tashrifi doirasida BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) bosh direktori Odri Azuleni qabul qildi.

Bosh direktor Odri Azule O'zbekiston bilan sarmahsul hamkorlikni yuksak baholab, bo'lajak tadbirga keng ko'lamlı tayyorgarlik ko'rila-yotgani uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Amaliy hamkorlik dasturlarini yanada kengaytirish, shuningdek, YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasidagi forum va tadbirlarni tashkil etish bo'yicha yaqindan hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

Shuningdek, tashrif doirasida Prezidentimiz Fransiya Milliy majlisi raisi Yael Braun-Pive bilan ham uchrashuv o'tkazildi.

O'ZA

BUGUNNING SHE'RI

BAHOR

Gullar chopib chiqdi uylar tomiga,
Marvarid donalar joylab jomiga,
Rangin salom yo'llab quyosh nomiga,
Yurtga bahor keldi, bahor, onajon!

Turnalar to'y qilar to'lib osmonda,
Qaldir'och chug'urlar shodon, ayvonda,
Shukuhli olamning avji har jonda,
Yurtga bahor keldi, bahor, onajon!

Ko'kka yetdik, deya ko'kda boshimiz,
Maysa-giyohlarga tengdir yoshimiz,
Ulashib sumalak – mehr oshimiz,
Yurtga bahor keldi, bahor, onajon!

Bolajon, tugamas bu nash'u namo,
Varrakka qo'shilib uchadi samo,
Mana, boshimizda charx urar Humo,
Yurtga bahor keldi, bahor, onajon!

Qirlarga qo'shilib yugurgan singlim,
Gulgun tabassuming gullardan so'lim,
Xushbo'y hislar bilan to'lmishdir ko'nglim,
Yurtga bahor keldi, bahor, onajon!

Oppoq xayol surgan mag'rur tog'larim,
Anvoyi atirdan masrur bog'larim,
Do'stlarim, siz bilan guldur chog'larim,
Yurtga bahor keldi, bahor, onajon!

Gullar chopib chiqdi uylar tomiga,
Marvarid donalar joylab jomiga,
Rangin salom yo'llab quyosh nomiga,
Yurtga bahor keldi, bahor, onajon!

G'ayrat MAJID

BIZNI YEMIRGUUVCHI ILLATLAR

ME'YOR UNUTILGANDA

Nahot orzularimiz to'y-to'ychiqdangina
iborat bo'lsa?!

Oilaviy marosimlar, ayniqsa, to'ylar xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini, ardoqli an'analari sirasiga kiradi. Ammo me'yorning buzilishi, g'uluvga ketish sabab an'analarni ham qadriyat maqomini yo'qotib, millat taraqqiyotiga tushov bo'lishi mumkin ekan. Ne tongki, to'y, ma'raka va boshqa marosimlar ham shuhratparastlik, xudpisandlik, isrofgarchilik borasida kimo'zar bellashuvga aylanib ketdi. Bu hol har bir ziyolini, har bir sog'lom fikrli vatandoshni o'ygatib toldirishi tabiiy.

IKKI MANZARA

Badavlat bir tanishimiz bor. Alloh sarvatdan ham, savlatdan ham qismagan. To'y qilsa, mashhur hofiz-u otarchilarni chorlab, dov-rug'ini doston qilmay qo'ymaydi. To'y marosimlari, bazmi jamshidlarni bir necha kunga cho'zmasa, ko'ngli

joyiga tushmaydi. Ammo ajabki, to'y uchun jaraq-jaraq aqcha sarflaydigan bu vallomat far-zandlarining o'qishiga pul berishga qorni og'riydi. “Kontrakt puli” oshib ketganidan yozg'irib yuradi deng!

Yana bir o'qituvchi do'stimiz bor. Qo'li yupqa, ayolmand. Top-gani ro'zg'orga arang yetadi, ammo har ikki-uch yilda xesh-aqradan qarz ko'tarib xatna to'yi qiladi, elga uch-to'rt pud osh beradi. “O'zingizni qiynab nima qilasiz, birodari aziz?” desangiz, “Do'st-yorlarning das-turxonida mehmon bo'lib yuribmiz. Eldan qolmaylik, biz ham qarzimizni uzaylik. Boz ustiga, qolganlardan nima kam joyimiz bor?” deydi yasama ko'tarinkilik bilan. To'ydan to'ygacha qarzlarni uzish uchun joningni jabborga berib ishlasang, usting yupun, qorning och-to'qligiga qaramasang, o'zing uchun qachon yashaysan, ey bandayi nekbaxt?!

(Davomi 6-sahifada.)

ISTIQBOLLI TURIZM

O'zbekiston va Malayziyani o'zaro teng manfaatli hamkorlik, bir-biriga yaqin madaniy qadriyatlar va o'xshash urf-odatlar mustahkam bog'lab turadi. Bu mamlakat respublikamiz uchun Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi muhim sheriklardan biri. Keyingi yillarda ikki davlat ham xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilib, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilm-fan va turizm sohalaridagi aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

HAM SAYOHAT, ZIYORAT



Prezidentimiz joriy yilning fevral oyida rasmiy tashrif bilan Malayziyada bo'lib, oliy darajada muzokaralar o'tkazdi. Tashrif doirasida davlatimiz rahbari Malayziyaning yetakchi siyosatchilari, ishbiarmon doira vakillari va kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashdi, ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan qator kelishuvlar tasdiqlandi. Savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar, texnologik kooperatsiya, neft-kimyoy, elektronika, “yashil” energetika va boshqa ko'plab ustuvor yo'nalishlardagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan memorandumlar imzolandi.

(Davomi 3-sahifada.)

MUNOSABAT

“ILK DEVON”NI KIM TUZGAN?

Buyuk shoir va mutafakkir, taniqli davlat arbobi Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish adabiyotshunosligimizning doimo asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Keyingi yillarda chop etilayotgan tadqiqot va maqolalarda esa aniqlikka intilish, ilmiy muammoni mantiqiy shakllantirish hamda yoritilajak masalani imkon qadar butun murakkabligi bilan to'liq qamrab olish ustunlik qilmoqda va bu quvonarli hol. Navoiyshunos Olimjon Davlatovning “Jadid” gazetasi shu yil 1-yanvar sonida chop etilgan “Xun evaziga keltirilgan qo'lyozma” maqolasi mana shunday chiqishlardan biri sanaladi. Biz unda keltirilgan ba'zi fakt va talqinlar yuzasidan o'z mulohazalarimizni bildirib o'tishni lozim topdik.

Maqolaning mavzusi navoiyshunoslikda shartli ravishda “ilk devon” nomini olgan mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan 1465-yili ko'chirilgan noyob qo'lyozma xususida bo'lib,



muallif mazkur manbani Sultonali ko'chirganini shubha ostiga oladi hamda qator dalillarni keltiradi. Albatta, vaqt o'tgach, avval bajarilgan ishlarga tanqidiy nazar tashlash, falsafiy idrok etish, yangi aniqlangan faktlar hamda bilimlar majmuiga tayangan, suyangan holda fikr-mulohaza yuritish har qanday fan yo'nalishiga xos bo'lib, navoiyshunoslik ham bundan istisno emas.

Muallifning fikricha, shoirning yoshlik davriga mansub (bu fakt navoiyshunoslikda ko'p marotaba e'tirof etilgan) besh g'azaldan faqat bittasiga “ilk devon”dan joy olgan.

(Davomi 5-sahifada.)



AKS SADO

MARKAZLARGA “MIXLANGAN”

IBRATXONALAR

qachon xalq ichiga kirib boradi?

Ikrom Bo'riboevning “Teatr: u hozir ham ibratxonami?” maqolasidan keyingi o'yalar

O'tgan asrning yetmish birinchi yili bahorida qishlog'imizga teatr kelganini haliyam eslaymiz. O'shanda biz, maktab o'quvchilari bir so'mga patta olib, Ogahiy nomidagi Xorazm viloyati teatrlarining “Oshiq G'arib va Shohsanam” spektaklini tik oyoqda tomosha qilganmiz. G'aribning onasi ayatdigan “O'g'lima o'xshiydi ovozing sani” tolasidan so'ng ayollarning “piq-piq” yig'laganlariga guvohman. Kolxoizning loysuvoq klubi bir yarim soat davomida o'tmishga – xalq dostonlari yashagan davrga qaytgan. Garchi tomoshabinlarning eng oxirida tikka turgan bo'lsak-da, artistlarning nafaslarini sezganmiz...

Elatimizda uzoq yillar brigadirlik qilgan Quronboy og'a Juma-boev o'sha kuni tomosha tuga-gandan so'ng rais buva uyushtirgan ziyofatda artistlarga choy qaynat-gani, ularni yaqindan ko'rganini o'lgunicha davralarda aytib yurdi...

Otam rahmatlik o'n yasharlik paytlarida (1925-1926-yillar) qish-log'imizdagi kungirador bir uy mehmonxonasida Hamzaning pyesasi namoyish qilindi, boy va kambag'al dehqon sahnada tap tortmay aytishganida ayrim sarmoyador odamlar boshini egib, qo'rqa-pisa o'tirganini ko'p eslardi. Bu salkam sakson yil yashagan otamning umrida ilk va yagona “tirik artistlar”ni ko'rgan bo'lgan.

Ushbu xotirotlarni keltirishimga hozirda poytaxtdagi hamda viloyat-lardagi ko'psonli teatrlarning “odam-lar ichiga kirib bormayotgani” – bir joyda muqim “mixlanib” qolgani, tomoshabinlar soni oshmayotgani... bunga bir qator vajlarni ro'kach qilishlari sabab bo'ldi.

To'g'ri, Xorazm viloyati qo'g'ir-choq teatri jamoasi maktab va bog'chalarda sahna asarlarini mun-tazam namoyish qilib kelmoqda. Xonqalik mashhur qo'g'irchoqboz Mansur og'a Quryozovni ham doimo bolalar davrasida ko'rasiz. Bu inson bolalar yoshiga mos xalq ertaklari qatorida “Jaloliddin Manguberdi” kabi vatanparvarlik ruhida to-moshalarni ham sahnalashtir-gan. Sahnada asarini bolalar yoshiga moslab sahnalashtirish o'z-o'zidan ularning dunyoqarashi shakllanishiga ulkan xizmat qiladi. Qolaversa, bolalikda ko'rgan narsa inson xotirasidan bir umr o'chmaydi.

Bugungi avlod bog'cha va maktabda qo'g'irchoq teatri to-moshalarini ko'radi. Talabalik davrida ham ularni majburiy-ixtiyoriy tarzda teatrlarga olib borishadi... va shu nuqtada bu avlodning teatr bilan oshnoqligi poyonlaydi. To'g'ri, shaharda yashovchi aholining teatrlarga tushish imkoniyati bor, ammo qishloqda bu imkonsiz. Negaki, poytaxt yoki viloyatdagi teatrlar qishloq klublari sahnasida o'z asarlarini namoyish qilishga ishtiyogmand emas. Bahonasi oddiy: “Repertuarimizdagi asarlarni qishloq klublarida namoyish qilish imkoniyati yo'q. Sahnada bezaklari, dekoratsiyalarni ko'chirish, o'rnatish qimmatga tushadi, qolaversa, klublar bu borada talabarga javob bermaydi”.

Muhtaram Prezidentimiz tashab-buslari bilan so'nggi yillarda qishloq-larda zamonaviy, barcha talabarga mos keladigan muhtasham klublar bunyod etilyapti. To'g'ri, ularda teatrlardagi kabi “aylana sahnalar” va boshqa sharoitlar yo'q. Yana, teatr ma'muriyati aytmoqchi “Masalan, tarixiy dramaning mohiyatini ochishda rassomlar tomonidan chizilgan suratlar va boshqa



TEATR: U HOZIR HAM IBRATXONAMI?

XABARINGIZ BOR, “Jadid” gazetasining avvalgi son-laridan birida “Hamza o'g'iyasi. Qirg'iq” sarlavhasi maqola e'ton qilgan edi. Kib va kibxonlik ta'li-ga bag'ishlangan mazkur material ko'pchilik yurtdoshlarimiz, ziyolalar-miz orasida o'qig'ni munozara va munosabat uyg'otganidan ruhaning holda, mavzuga uzviy bog'liq yana bir masalaga – milliy teatr san'atining bugungi holatiga chuqurroq rasm sohibiga urindik. Zero, kitob ham, teatr ham yig'ona mavzu-ga...

dekoratsiyalar katta ahamiyat kasb etadi. Shularsiz qishloqning “yalang'och sahna”sida pyesa mazmun-mohiyatini tomoshabinga to'liq yetkazib bo'lmaydi”.

Milliy o'zbek teatri tarixi buyuk jadid bobomiz Behbudiyning “Padarkush” pyesasidan bosh-lanadi. Bu asar 1914–1916-yillarda yurtimizning 35 shahrida namoyish qilingan. O'sha davrda poytaxtdagi sanoqli teatrlardan boshqa birorta klub yoki moslama binolarda sahna asarini qo'yish uchun shart-sharoit bo'lmagan. Ammo xalqni uyg'otish, ularning ongiga ma'rifat singdirishni maqsad qilgan jadidlar shunday sharoitlarda ham sahna asarlarini namoyish qilavergan-lar. Sahnada bezagi, dekoratsiya ikkinchi... uchinchi o'ringa surilib, pyesa namoyishidan maqsad – artistlarning jonli ovozlari, xatti-harakatlari, o'z rollarini maromiga yetkazib ijro qilishlari old o'ringa chiqarilgan va bunda ko'zlangan maqsadga ham erishilgan.

Bugun esa... Viloyat teatrida sahnalashtirilgan yangi asar tomosha-siga chekka qishloqlarda yashov-chilarning necha foizi borishi mumkin? Ko'pi bilan bir-ikki foizi. Nega, dersiz. Birinchidan, teatrga ixlosmand tomoshabin qirq-ellik chaqirim masofaga borishi va qaytishi uchun ozmuncha xarajat qilmaydi (ketgan vaqti ortiqcha). Agarda teatr qishloqdagi klubda o'z asarini namoyish qilsa, ketadigan vaqti va sarf-xarajatining yarmi yoniga qoladi. Qishloqlar markaz-laridagi klublarga borish uchun ulov shartmas – ko'pi bilan ikki-uch chaqirim masofaga bemaolul piyoda borib qaytish mumkin.

Ikrom Bo'riboev mulohazaga chorlovchi maqolasining “Teatr va tomoshabin” bo'limida keltirgan raqamlar meni aynan yuqoridagi mulohazalarni o'rtaga tashlashga undadi. Muallifning yozishicha, o't-gan yili davlat teatrlariga barcha xarajatlar uchun 227.4 milliard so'm ajratilgan holda, ular tomonidan spektakllar namoyishi orqali 21.6 milliard so'm mablag', shuningdek, servis xizmatlari ko'rsatish orqali 392 million so'm qo'shimcha mab-lag' topilgan.

Yana muallif “agarda barcha teatrlar 100 foiz qamrov bilan ishlaganida chiptalar sotuvidan 100 milliard so'm mablag' topishi mumkin”ligini eslatadi.

Viloyatlardagi teatr ixlosmand-lari poytaxtdagi teatrlarga spek-takl tomosha qilish uchun atayin bormaydi. Bora olmaydi. Poytaxtga yo'li tushganidagina teatrga kirishi mumkin, xolos. Bu holatni viloyatlarning chekka tumanlarida yashovchi teatr ixlosmandlariga nisbatan ham ishlatish mumkin. Demak...

Bugun Xorazmdagi yuzdan oshiq qishloq hamda uchta shahar

va tumanlar markazlarida faoliyat yuritayotgan klublarning imko-niyatidan kelib chiqib, teatrlar (nafaqat viloyat, balki boshqa viloyatlar hamda poytaxt teatrlari ham) o'zlari sahnalashtirgan asar-larni ko'chma tarzda namoyish qilishlari kerak. Agarda ushbu klublar kamida to'rt yuz nafar tomoshabinga mo'ljallangani va patta narxi o'rtacha ellik ming so'm qilib belgilanganida ham bir teatr jamoasi yilda hech bo'lmaganida har klubda bir sahna asarini namoyish qilganida o'rtacha 2 milliard so'm mablag' topishi mumkin bo'ladi. Qishloq ahli oila a'zolari bilan piyoda borib tomosha qiladigan pyesa uchun yuz-ikki yuz ming so'mni ayamaydi (viloyat markaziga teatrga tushish uchun borganida bu xarajati ikki-uch marta baland bo'lishini inobatga olganimizda).

To'g'ri, ba'zida viloyatga poy-taxtdan teatrlar gastrollarga kelib turadi. Ammo ular asosan tuman markazlarida o'z sahna asarlarini namoyish qilish bilan cheklanadi. Boshqa viloyatlardan keladigan teatrlar ham markazlardan ort-maydi... qishloq ahli e'tibordan chetda qoladi.

Jadid bobolarimiz ilk sahna asarlari bilan xalq ichiga kirib borganida daromad topishni o'yla-magan, maqsad – ezgu g'oya-larni omma orasiga yoymoq bo'l-gan. Hamza Hakimzoda Niyoziy Xivada yashagan davrida o'zi sahnalashtirgan asarlari qahra-monlari uchun kiyim-boshlarni vaq-tinch xon saroyladi, muzeylardan ijaraga olib turgani ma'lum (bu o'rinda dekoratsiya haqida gap ham bo'lmagan).

Behbudiy bobomiz bir asr ilgari aytgan “Teatr – ibratxona” iborasi hozirgi kunda teatrlarning bosh shioriga aylanmog'i va barcha ijodiy jamoalar Prezidentimiz ko'p ta'kidlaydigan “xalq ichiga kirib borish” amaliyotiga o'tishlari kerak. Aks holda, davlatimiz tomonidan ajratilayotgan milliardlab mablag'lar havoga behuda sovuriladi, tarixiy va zamonaviy mavzuda yaratilgan sahna asarlari markazlardagi muh-tasham teatr sahnalaridan tashqariga chiqi olmaydi, ko'zlangan maqsad yarim yo'lda qolib ketaveradi...

Darvoqe, yaqinda “Jadid” gaze-tasi tahririyati tomonidan nashr qilingan “Tilda, fikrda, ishda birlik!” yilnoma kitobi taqdimotida O'zbekiston davlat drama teatri repertuaridan joy olgan “Turkiston bolalari” spektaklidan parcha namoyish etilganida yig'ilganlar gulduros olqishlashdi. Ularni sahna bezagi yoki dekoratsiya yo'qligi qiziqitirmadi, balki aktyorlarning o'z rolini mohirona ijro etishi asosiy e'tiborda bo'ldi.

Ro'zimboy HASAN,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

BUGUNNING NAFASI

Ilmsizga ishonch, hunarsizga quvunch yo'q, deydi xalqimiz. Darhaqiqat, har ishning o'z ilmi, har hunarning bir hikmati bor. Ilm-fan kundan kunga rivojlanib, oddiy dehqonchilik ham san'at darajasiga chiqayotgan bugungi jamiyatda har kishining kasbi kori bo'lmog'i davr talabidir. Zero, endi dunyoga havas ko'zi bilangina emas, mahorat nazari bilan ham boqishga majburiy.



BARAKATLI HARAKAT

Prezidentimizning “**Kasbiy ta'lim-da malakali kadrlar tayyorlash** tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni ana shu talabga mos va xos hujjat bo'lib, uning ijrosi yuzasidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. Pirovardida aholi bandligi bilan bog'liq muammolarning ham hal etilishi, ayniqsa, quvonarlidir.

Navbahor tumanidagi 2001-yilda kasb-hunar kolleji uchun qurilgan umumiy maydoni 3,7 gektarlik muassasaning 912 o'rinni binosi optimallashtirish asosida Navoiy viloyatidagi yirik sanoat korxonalari tomonidan yangi zamon talablari-ga moslab qayta jihozlandi. Ishlab chiqarish korxonalari, sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarida ish-chi kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligidan kelib chiqqan holda, shu joyda tashkil etilgan Navbahor tumani 2-politexnikumi o'rtabo'g'in kadrlarini ko'paytirishga ixtisoslantirildi. Unga tumanidagi ishsiz, oilaviy sharoiti og'ir va uyushmagan yoshlar jalb qilindi. Binoni kapital ta'mirlash ishlariga esa naq 40 milliard so'm sarflandi.

Xo'sh, shuncha mablag' evaziga tashkil qilingan o'quv dargohining faoliyati nimadan iborat o'zi?

imkoniyatiga ham ega bo'lishdi. O'z o'rinda texnikumlar ish beruvchi korxona va tashkilotlarga birlashtirib qo'yildi.

Jumladan, Navbahor tumani-dagi 2-politexnikum bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Navoiy issiqlik elektr stansiyasi va “Navoiy-azot” singari yirik korxonalar o'rta-sida hamkorlik shartnomalari imzo-langan. Shuningdek, Ijtimoiy himoya agentligi, Yoshlar ishlari agentligi, Veterinariya va chorvachilikni rivoj-lantirish qo'mitasi bilan uzviy aloqa-lar yo'lga qo'yildi. Mazkur tashki-lotlarning barchasi politexnikum binosining ta'miriga o'ziga xos hissa qo'shdi.

Binoning uchinchi qavatida uzoq-yaqindan kelgan talabalar uchun 100 o'rinni bepul yotoqxona tashkil etilgan. E'tiborli jihati, ular darsdan so'ng politexnikum binosida faoliyat ko'rsatayotgan “Qorovultepa zamo-naviy eshiklari” MChJda ishlab, oylik maosh ham olishadi, bepul issiq ovqat bilan ta'minlanadi.

Shu o'rinda Germaniyaning GIZ loyihasi asosida Xalqaro hamkorlik jamiyatining 200 million so'mlik granti qo'lga kiritilib, politexnikumga 28 turdagi tikuv uskunalar olib kelinganini qayd etish lozim. Bu yerdagi 200 o'rinni ustaxona, 350 o'rinni faollar zali, 60 o'rinni oshxona

mamlakatlarda inobatga olinib, hech qanday to'siqsiz ishga qabul qilinadi.

– Qisqa o'quv kurslarimiz ham bor, – deydi politexnikumning ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari Elyor Safarov. – Ba'zilar 4-6 oylik kursda nimani ham o'rga-nish mumkin, deb o'ylashadi. Lekin bu yerda bilim olgan yoshlarning ishga ham joylashayotgani natijasida tumanimiz aholisida politexnikumga qiziqish va ishonch kuchaymoq-da. Masalan, tokarlik kursini tugat-gan 18 nafar bitiruvchimiz Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga to'g'-ridan to'g'ri ishga qabul qilindi. Shuningdek, laboratoriya yo'nali-shida o'qigan xotin-qizlarning bir guruhi hozir “Navoiyazot” korxo-nasida ishlayapti. Biz faqatgina elektromontyorlik sohasi bo'yicha ikki yil o'qitamiz. Chunki bu yo'na-lish murakkab va biroz xatarli hisoblanadi.

Politexnikumda ayni paytda jami 651 nafar talaba 15 turdagi kasb bo'yicha o'qitilmoqda. Ustozlarning 35 nafari umumta'lim fanlari, 18 nafari ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha dars va mashg'ulotlar olib borishmoqda.

E'tiborli jihati, Rossiyaning “KAMAZ” avtomobil zavodi vakillari bu yerda yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, yuqori saviyadagi ta'lim tizimi va amaliyoti bilan yaqindan tanishgach, politexnikum bilan hamkorlik shartnomasi imzolashdi. Shunga asosan politexnikum bitiruvchilarining ikki ming nafari mazkur zavodga payvandlovchi, tokar, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va qurilish yo'nalishlari bo'yicha ishga qabul qilinadigan bo'ldi.

Aytish joizki, turli sohalarda yil-dan yilga xorijiy investitsiyalar sal-mog'ining oshishi natijasida ko'p-lab ish o'rnlari yaratilayotir. Bu o'z-o'zidan ichki va tashqi mehnat bozorida malakali mutaxassislar-ga talab oshishiga sabab bo'lmoq-da. Shu jihatdan ertaga kadrlar qo'nimsizligi muammasi paydo bo'lmashiga uchun ish beruvchi korxona va tashkilotlarning muta-xassislarga bo'lgan aniq talabi hisobga olinishi kerak. Politex-nikumda bu masala doimiy e'tibor markazida. Jumladan, “Mengli Tekstil Group” MChJ bilan tuzilgan memorandum asosida talabalarga haftaning birinchi yarmida nazariy, ikkinchi yarmida amaliy saboqlar berilyapti.

Davlatimiz rahbari yoshlarga qa-rata shunday degan edi: “Farzand-lari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli albatta yorug' bo'ladi. Biz O'zbekiston yosh-larini ana shunday ezgu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalash uchun bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar eta-miz”. Mamlakatdagi mavjud shart-sharoitlarga munosib tarzda jami-yatning muhim bo'g'ini bo'lgan navqiron avlod vakillari ham bilimli, ham harakatchan va shijoatli bo'lsa, Yangi O'zbekistonning haqiqiy vorislari – Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'lib yetishishiga shak-shubha yo'q.

Muhayyo RUSTAM qizi




Kollej va kasb-hunar maktablari-ni politexnikumlarga aylantirishdan ko'zlangan maqsad nima?

Ma'lumki, respublikamizda yosh-larni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ta'lim darajalari belgilangan bo'lib, ularda o'quv darslari to'liq yo'lga qo'yildi. Ammo ixtisosiga mos ravishda darslarni amaliyot bilan birga olib borishning imkoniyati chegaralangan edi. Shuni hisob-ga olgan holda, barcha kasbiy ta'lim muassasalari birlashtirilib, texnikumlar joriy qilishga kirishildi. Shuningdek, bu texnikumlarda ilg'or xorijiy tajribalar asosida dual ta'lim tizimi joriy etildiki, endilikda talabalar o'qish bilan bir qatorda korxona va tashkilotlarda ish o'rganish

va sport zalida havas qilsa arzigulik shart-sharoitlar yaratilgan. Bu yerda yoshlar payvandlovchi, avtomobil ta'mirchisi, elektromontyor, mebel ustasi, veterinar-feldsher, Ay-Ti us-tasi mutaxassisliklariga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida tashkil etilgan ushbu o'quv dargohida bugungi kunda turli toifaga mansub yoshlar kasb-hunar sirlarini o'rganmoqda. O'quv jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilingan. Buning afzalligi shundaki, politexnikumni tamomlagan yoshlar boshqa xorijiy davlatlarda ham o'z sohasi bo'yicha faoliyat ko'rsatishi mumkin. Ya'ni ularning O'zbekistonda qo'lga kirit-gan kasbga oid hujjati boshqa



“**Haqiqiy ta'lim odamni odamiylikka tayyorlashdir.**

Nikolay PIROGOV





Boshlanishi 1-sahifada.

Shuningdek, turizm sohasidagi hamkorlik doirasida Kuala-Lumpur va Toshkent o'rtasidagi aviaqatnovlar sonini oshirish, malayziyalik sayyohlar uchun O'zbekistonning tarixiy va diniy merosi bilan tanishish imkoniyatini kengaytirish, Umra safariga boruvchilar uchun qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda xalqaro darajadagi mehmonxonalar va turizm infratuzilmasini rivojlantirish, Malayziyaning yirik sayyohlik kompaniyalarini yurtimizga jalb qilish, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ikki davlat universitetlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan ham keshuvlarga erishildi. Bular O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat.

Ziyorat turizmi, madaniy va tarixiy sayyohlik hamda ekoturizm yo'nalishlari so'nggi yillarda har ikki davlat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bugun O'zbekistonga kelayotgan malayziyalik sayyohlar soni hamda Malayziyaga safar qilayotgan o'zbekistonlik turistlar oqimi sezilarli darajada oshdi.

2023-yilda O'zbekistonga 4396 malayziyalik sayyoh kelgan. O'tgan yili ular soni teng barobar oshib, 9464 nafarga yetdi. Bu mamlakatimizning malayziyaliklar uchun jozibali sayyohlik maskaniga aylanayotganidan darak. Malayziyalik sayyohlar asosan Buxoro, Samarqand va Xiva kabi tarixiy shaharlarga boradi. Chunki bu shaharlarda islom madaniyati va tarixiga oid ko'plab noyob yodgorliklar bor.

So'nggi yillarda Umra safaridan oldin yoki keyin O'zbekistondagi muqaddas qadamlarni ziyorat qilish tendensiyasi kuchayayotgani kuzatilmoqda. Chunki bu zaminda islom dunyosida yuqori nufuzga ega allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband singari ulug'lar yashab o'tgan. Ular maqbarasini ziyorat qilish maqsadida keluvchi turistlar uchun qulay sharoit yaratilgan.

Bugun ko'plab malayziyalik sayyohlar Hazrati Imom majmuasida saqlanayotgan Usmon mus'hafini ko'rish orzusida ekanini bildiradi. Shuning o'zi ham turistlarni jalb qilish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozimligini ko'rsatmoqda.

Malayziyalik sayyohlarni yurtimizga jalb qilish uchun yana bir qancha turistik paketlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Masalan, Umra safariga kelayotgan malayziyalik ziyoratchilar uchun Kuala-Lumpur – Toshkent – Samarqand – Buxoro – Jidda marshrutini qamrab oluvchi "Umra



plyus", Samarqand, Buxoro, Termiz shaharlaridagi ziyoratgohlarga sayohat qilishni qamrab olgan "Oltin silsila", oliy ta'lim muassasalari o'rtasida talabalar almashinuvi dasturi doirasida malayziyalik talabalar uchun "O'zbekiston bo'ylab sayohat" turistik paketlarini ishlab chiqish lozim.

"Umra plyus" paketi orqali O'zbekistonning boy islomiy, diniy va madaniy merosi – qadimiy ziyoratgohlar, tarixiy shaharlar va mutafakkir olimlar ziyorati xalqaro miqyosda keng targ'ib etiladi. Maqsad musulmon sayyohlarni jalb qilish orqali nafaqat diniy e'tiqodni mustahkamlash, balki mamlakatimiz turizmida yangi mahsulotlar yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yo'lida mustahkam poydevor qurishdir.

Ushbu paket bo'yicha turistlarni qabul qilish uchun bir qancha tashkiliy ishlarni bajarish zarur. Jumladan, Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari ziyoratgohlaridagi turistik infratuzilmani takomillashtirish, bu jarayonda "musulmon mehmondo'stligi" standartini joriy etish yo'li bilan mehmonxona va umumiy ovqatlanish tizimida ziyorat turizmi xizmatlari sifatini yana ham yaxshilash talab etiladi.

O'zbekistonlik sayyohlar uchun esa Malayziya ko'p qirrali turistik yo'nalishlardan biridir. Ular asosan Penang, Langkavi orollari, Kuala-Lumpur va Malakka shaharlariga sayohat qilishni afzal ko'radi. Malayziya osmono'par binolari,

zamonaviy savdo markazlari hamda dam olish va ekoturizm yo'nalishlaridagi keng imkoniyati bilan sayyohlarni o'ziga jalb etadi.

Ayniqsa, xalqaro darajadagi kurortlar va plyajlar o'zbekistonlik sayyohlar orasida mashhur. Langkavi va Batu Ferringi kabi ekzotik joylar yurt-doshlarimiz uchun asosiy dam olish maskaniga aylandi. Shuningdek, Malayziyaning boy milliy oshxonasi, ayniqsa, dengiz mahsulotlariga boy taomlari o'zbekistonliklarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Ikki mamlakat o'rtasida o'zaro turistik oqimni yanada ko'paytirish uchun qator muammolar mavjud bo'lib, bugun ularning yechimi ustida ishlash zarur. Jumladan, hozir Toshkent – Kuala-Lumpur – Toshkent yo'nalishidagi avia-qatnovlar soni cheklangan, reyslar narxi ba'zi sayyohlar uchun qimmatlik qilishi mumkin. Yaqinda Malayziyaning "Air Asia X Berhad" aviakompaniyasi samolyotlari Kuala-Lumpur – Toshkent – Kuala-Lumpur yo'nalishida muntazam qatnay boshlagan bo'lsa-da, reyslar sonini yanada ko'paytirish va aviakompaniyalarni jalb etish muhim.

Har ikki davlat sayyohlarining aksariyati mavjud imkoniyatlar va turizm yo'nalishlari haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Turizm agentliklari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, axborot portallari va ijtimoiy tarmoqlarda reklamani kengaytirish lozim. O'zbekistonning

turizm imkoniyatlarini Malayziyada targ'ib qilish va aksincha, Malayziya sayyohlik sohasini O'zbekistonda keng yoritish kerak. Bu ishlarni bajarish uchun xalqaro sayyohlik ko'rgazmalarida ishtirok etish, onlayn marketing strategiyalaridan foydalanish hamda influenserlar bilan hamkorlik qilish samarali bo'lishi mumkin.

Yana bir muhim masala shuki, yurtimizda ziyorat turizmi yo'nalishidagi mehmonxonalar, ziyoratgohlar va turizm obyektlarini xalqaro standartlarga moslashtirish kerak.

Turizm rivojlanishi uchun eng muhim omillardan yana biri viza rejimini yengillashtirish va sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratishdir. Bu boradagi ishlarni qoniqarli desa bo'ladi. 2018-yildan boshlab O'zbekiston va Malayziya o'rtasida 30 kunlik vizasiz rejim joriy qilingan. Bu chora-tadbirlar O'zbekistonga kelayotgan malayziyalik sayyohlar sonining keskin oshishiga sabab bo'ldi.

Keyingi yillarda ikki davlat o'rtasida sayyohlar uchun qulay logistika imkoniyatlarini yaratish masalalari ham muhokama qilinmoqda. Shuningdek, mehmonxonalarda musulmonlarga mos turizm standartlarini joriy qilish, maxsus gidlar va mobil ilovalar orqali turistik xizmatlarni takomillashtirish kabi muammolarga yechim topish ham dolzarb masaladir.

O'zbekiston va Malayziya turizm sohasida oliy ta'lim hamkorligini kuchaytirishga katta e'tibor qaratmoqda. Hozir Malayziyaning nufuzli

universitetlari va O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik shartnomalari imzolangan. Bu esa talabalar va mutaxassislar almashinuvi ta'minlash, malaka oshirish kurslari hamda stajirovkalarni tashkil etish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, malayziyalik mutaxassislar O'zbekistondagi turizm kollejlari va universitetlarida mahorat darslarini o'tmoqda.

Xususan, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasivaMalayziyaxalqaroislomuniversiteti o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Chunki akademiya bu yo'nalishda, ayniqsa, ziyorat turizmi sohasida yetuk mutaxassislar tayyorlaydi va Malayziyaning xalqaro islom universiteti bilan yaqindan hamkorlik qilib keladi.

Kelgusida ikki mamlakat o'rtasida turizm sohasida kadrlar tayyorlashni yanada rivojlantirish maqsadida qo'shma ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil etish, trening va seminarlar o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Malayziyalik sayyohlar uchun O'zbekistonda maxsus "Ziyorat turizmi" marshrutlari tashkil etish, islom merosini o'rganish va madaniy aloqalarni mustahkamlash imkoniyatlari yaratilmoqda. Bundan tashqari, "Halol" standartlariga mos mehmonxonalar va restoranlar ham ko'payib boryapti.

Turizm sohasi faqat sayyohlar oqimi bilan cheklanmay, biznes va investitsiyalar uchun ham katta imkoniyatlar taqdim etadi. Hozir malayziyalik investorlar O'zbekistonda mehmonxonalar, dam olish maskanlari, restoranlar va sayyohlik xizmatlari tarmog'ini rivojlantirishga qiziqish bildirmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston va Malayziya o'rtasida qo'shma turistik kompaniyalar tashkil etish va maxsus turizm loyihalarini amalga oshirish bo'yicha muzokaralar olib borilyapti. Investorlar uchun investitsiya muhitini yanada yaxshilash va jozibadorligini oshirish, soliq imtiyozlari, yer uchastkalari ajratish va infratuzilmani yaxshilash kabi chora-tadbirlar ham ko'rib chiqilmoqda.

Kelgusida ikki davlat o'rtasida sayyohlik sohasida tadbirkorlar uchun forumlar, biznes anjumanlar va ko'rgazmalar tashkil etish rejalashtirilyapti. Bu orqali nafaqat turizm, balki mehmonxona biznesi, transport va logistika, ovqatlanish xizmatlari hamda boshqa sohalar ham hamkorlikni mustahkamlash mumkin.

Imkoniyatlardan samarali foydalanish va hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun ikki davlat hukumatlari hamda xususiy sektor vakillari hamjihatlikda ishlashi lozim. Shunda ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Muzaffar KOMILOV,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori

RAMAZON SABOQLARI

Ro'za – avvalo, ibodat. U salomatlikni mustahkamlaydi. Qolaversa, kishi ruhida sabrni kuchaytiradi. Albatta, sabr – oson ish emas. U boshida qattiq botishi, kishi ko'nglini mahzun qilishi mumkin. Ammo odamni zafarga olib boradigan ham ana shu sabr. Alisher Navoiyda shunday satrlarni o'qiymiz:

*Sabr archi kishiga ranj afzun aylar,
Oxir kishi faolini humoyun aylar.
Sabring nechakim ko'ngulni mahzun aylar,
Har sabr zafarga maqrun aylar.*

Biz sovet davrida yillar mobaynida butun o'tmish ma'naviy merosimizda yuksak qadrlanib, targ'ib qilib kelingan sabrni tamom boshqa mazmunlarda tushunib va tushuntirib keldik. Sabr-u qanoat haqida aytilgan har qanday hikmatni go'yo sinfiy zulmga ko'nish, hukmron doiralar manfaatlariga xizmat qilish mazmunida talqin etdik. Holbuki, sharqona donishmandlik: "Dunyoda hech narsa sabrdek lazzatli emas", deganda batamom boshqa insoniy halovatni ko'zda tutgan edi.

Yana ulug' shoirimizga quloq tutamiz: *Yo'q lazzati sabrdek muqaddar nimaning, O'z xurid'adur zavqi muqarrar nimaning. Beasiga yo'q fahmi muyassar nimaning, Far'i berur asldin xabar har nimaning.*

Axir, inson uchun sabr hayot kechirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Demak, ro'za, umuman, ovqat masalasida qanoatli bo'lish, me'yoriyan ortiq narsa iste'mol qilmaslik islom olamida izchil bir ta'limotga aylangan. Sharq tabobatida-ku bu jihat kuchli taraqqiy etgan. Ko'p kasalliklarga parhez buyurilishi bejiz emas.

Tandagi harqanday ortiqchalikruhga, ya'niki ma'naviyatga, ya'ni kishining fe'l-atvoriga salbiy ta'sir qilishi tabiiyiligi ilmda isbotlangan. Tasavvufda esa jism va ruh, ularning o'zaro uyg'unligiga erishish, aniqrog'i, jismni ruhga moslashtirish bosh masala hisoblangan. So'fiyning asosiy maqsadi – ruh kamolotiga erishish. Ruh jism ustidan hukmronlik qilishi uchun avval jism nafsni yengishi kerak. Yeyishga o'chlik ham – nafsi bad.

So'fiylar har qanday nafsga qarshi ochiq kurash e'lon qiladi.

Tasavvufda solik shariat qoidalarini og'ishmay bajarishi shart qilib qo'yiladi.

Milodiy 1006 va 1088-yillar orasida yashagan shayx ul-islom, ya'ni hazrati Xoja

SO'FIYLAR RO'ZASI

Abdulloh Ansoriy shunday deganlar: *"Har nimadin bir miqdorni olsalar, bir miqdori qolur, shariatdan o'zgaki, bir miqdori andin kam bo'lsa, hech nima qolmas"*. Demak, shariat qoidalaridan birigina bajarilmasa ham, undan hech narsa qolmas, ya'ni boshqa barcha sa'y-harakat zoye ketar ekan.

Ro'za ham – shariat qoidalaridan. So'fiylarning ro'zaga munosabati boshqa oddiy musulmonlarnikidan biroz ajralib turadi. Navoiy asarlarida tasavvuf ahli ro'zasi haqida talay e'tiborli ma'lumotlar bor.

So'fiylar haqidagi "Nasoyim ul-muhabbat" taxkirasida keltirilishicha, oddiy odamlardan farqli o'laroq, tasavvuf ahli, hatto, ko'zlarini nomashru', ya'ni shariatga xilof narsaga qarashdan, quloqlarini nomashru' gap yo tovush eshitishdan (*"Quloqqa yomon eshitiladigan gapdan saqlan"*), degan hadisi sharif ham bor), oyoqlarini nomashru' qadam tegishdan tiyadi va hokazo barcha a'zolarini shunday cheklaydi. Ular hammadan ko'ra ko'proq ko'ngillariga ro'za buyuradi, toki qalbda Allohdan boshqa narsa bo'lmasin.

So'fiylar uchun shariatdan ham burun amal qilinadigan ikki muhim masala mavjud. Birinchisi – tavba. Ikkinchisi – luqma hilliyati. Bu – *iste'mol qilinadigan narsaning halolligi*, degani. Halol – ham moddiy, ham ma'naviy tushuncha. Moddiyligi shundaki, musulmon kishi yeyish harom hisoblanmagan narsalarnigina iste'mol qilishi lozim.

Lekin *"luqma hilliyati"* ko'proq masalaning ma'naviy tarafiga, ya'ni iste'mol qilinadigan narsaning halol mehnat yo harom yo'l bilan topilganligiga daxldor.

Aksari shayxlar halol kasb bilan kun ko'rgan. "Nasoyim ul-muhabbat"da Navoiy buni alohida ta'kidlaydi: *"Va soyiri mashoyixi kibordin (ya'ni, ulug' shayxlardan – S.O.) ham ko'pi halol luqma kasbig'a muzdurluq qilibturlar, o'tun toshibturlar va halol luqma bu ishda kulliydurki (ya'ni, ko'pdirki – S.O.), andin fayz va ma'rifat zo'yanda (ya'ni, paydo – S.O.) bo'lur"*.

Bir shayx yeyish uchun shubhali tuyulgan luqmani suvga tashlagan. Keyingi bir necha yil: *"Bordi-yu, uni baliq*

yegan bo'lsa, baliqni yeb, nohalol luqma gunohiga qolmay", degan xayol bilan baliq yemagan ekan...

Halol mehnat evaziga kelgan mahsulotnigina iste'mol qilish masalasiga diqqat shu darajada bo'lganki, mabodo, bilib-bilmay shunday taom yeb qo'yilsa, bu gunohni tuzatish uchun juda ko'p sa'y-harakat qilingan. Navoiy bu haqda: *"...Va bir shubhalik luqma oncha tiyralik kultururki, ko'p vaqt aning islohiga mashg'ul bo'lub, ma'lum emaski, dafi' ne nav' surat bog'lar"*, deb yozadi.

Hindistonda mutlaqo go'sht yemaydigan, faqat o'simliklar, ya'ni meva-sabzavot bilangina umrguzaronlik qiladigan mazhablar (vegetarianlar) vakillari ko'pligini bilasiz. Amerikalik olim Pol Bregg buning to'g'riligini ilman isbotlashdan tashqari, butun insoniyat bir kun kelib shu yo'lga o'tishini, barcha ekiladigan maydonlarda pishirmasdan iste'mol etiladigan sabzavot va mevalar yetishtirilishini orzulaydi.

Tasavvuf vakillari orasida ham go'sht yemasdan kun ko'rishni odat qilganlar ko'p bo'lgan. Masalan, XIV asrda yashab ijod etgan mashhur shayx va shoir Kamol Xo'jandiyning otalari ham bir necha muddat, umuman, go'sht yemagan ekanlar.

So'fiylar uchun ko'p taom yeb, maza qilish emas, oz taom yesa ham, uning ta'mini, ya'ni lazzatini obdan his etish muhim hisoblangan. Oz taom yeyishning lazzatini shayxlarchalik qadrlaganlar kam topiladi. Shayx Ali binni Sahli Azid Isfahoni: *"Haq subhonahu va taolokim, ...pokiza taom agar ag'niyog'a (ya'ni, boylarga – S.O.) beribtur, taomning*

“Taomni andoq yegilki, sen ani yegaysan, yo'qki, ul – seni. Agar sen ani yesang, barcha nur bo'lg'ay va agar ul seni yesa, barcha dard bo'lg'ay!”

Ahmad HIRAVIY



lazzatini bularg'a (ya'ni, so'fiylarga– **S.O.**) *beribtur"*, degan ekanlar. Chunki Abu Abdulloh Muxtor ibni Muhammad ibni Ahmad Hiraviy aytadilarki: *"Taomni andoq yegilki, sen ani yegaysan, yo'qki, ul – seni. Agar sen ani yesang, barcha nur bo'lg'ay va agar ul seni yesa, barcha dard bo'lg'ay!"*

Ko'p xastaliklar betartib, me'yorsiz yo sifatsiz ovqatlanishdan ekanini hamma bilsa kerak. Odam – taomni emas, taom – odamni yegani shu-da!

Navoiy asarlarida bu fikrlarning tasdig'i bo'lgan ajib-ajib hikoyatlar keltiriladi.

Muammal Hassos degan shayx Abu Abdulloh Xafif degan so'fiyga: *"Borib, Ja'far Hazzo degan shayxning holidan xabar olib kel"*, deb buyuradi. Borsa, Ja'far Hazzo bir muhtasham saroyda zo'r kiyinib, laziz-laziz taomlar yeb yashayotgan ekan. U mehmonni ham yaxshilab ziyofat qiladi. Bir necha muddat o'tib, Muammal Hassos yana Abu Abdulloh Xafifni Ja'far Hazzo holidan xabar olib kelishga jo'natadi. Ko'rsaki, bir vayronada yig'lab o'tiribdi. Uch kundan beri tuz tatimagani ekan. Abu Abdulloh Xafif ko'p harakat qilib, unga ozgina suyuq ovqat ichiribdi. Kelib, uning ahvolini bayon qiladi. Shunda pir: *"Agar avval noz-u ne'matlar ichra yashashga ruju qo'ymaganida edi, bu holga muhtalo bo'lmas edi"*, deydi.

Pol Bregg va boshqa olimlar ko'p kasalliklarni ochlik bilan davolash yo'llarini topdi, hatto ochlik umrni uzaytirishning yagona samarali yo'li sifatida talqin etildi ham. So'fiylarda esa ro'zadan tashqari ham och yurish rayozati bor edi. Eslatganimiz – Ja'far Hazzo bir kuni Abdurahim Istahariy degan

shayxning oldiga boradi. Uni kasalmand bir ahvolda uchratadi. *"Seni bu dam o'lgudek ko'radurmen za'fdin"*, deydi. Shunda Istahariy bir bag'oyat katta toshni ko'tarib, tomga chiqarib qo'yadi-da, hoynahoy, semizligiga ishora qilib bo'lsa kerak: *"Ey qo'y, kelib bu toshni ko'tarib, quyi tushir"*, deydi. Kasalmand ko'ringan Abdurahim Istahariy-ku bu toshni tomga chiqarib qo'ydi, lekin uni xastalikda ayblayotgan Ja'far Hazzo toshni olib tushmasligini aniqlikda. Toshni chiqargan shayxning kasalmand ko'rinishi shundan ediki, u naqd o'n yetti kundan beri tuz tatimagani edi. O'zini ruhan tayyorlamagan oddiy odam o'n yetti kunlik ochlikka chidashi juda qiyin. Bu so'fiy esa shuncha kunlik ochlikdan keyin ham uncha-muncha odamda bo'lmaydigan kuchini namoyish etgan. "Nasoyim ul-muhabbat"da shu shayxning ro'za oyini, umuman, ovqat yemay o'tkazgani haqida ham ma'lumot beriladi.

Xullas, ro'za Alisher Navoiy uchun shunchaki mavzu emas edi. *Sihhat tilasang – oz ye, lzzat tilasang – oz de, –* yoki:

Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon, Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon, – degan hikmatlar bitgan shoirning bu borada izchil va mukammal ilmiy-falsafiy ta'limotga suyangani ayonlashadi.

Bu hozirgi zamon uchun ham foydali bir ta'limot ekaniga shubha bo'lmasligi kerak. Muqaddas ramazon oyi bizga ro'za bilan bog'liq ana shunday boy ma'naviy merosimiz haqida suhbatlashish imkonini berdi.

Sultonmurod OLIM



SIYRAT

Qadim karmanalik tub shoir, jurnalist va muallim Odil Hotamov butun umrida, boshqa hech qayerga qo'zg'almasdan, bir yerda muqim yashadi. Bu bilan dunyoda Karmanadan ham go'zal joy yo'q demoqchi bo'ldi. Tuman gazetasini chiqardi. Unga yuragining qo'riini berdi. Ko'zining nurini bag'ishladi. Yosh shoirlarni to'pladi. Shogirdlar yetishtirdi. Karmanaliklarning dardlarini teng bo'lishdi. Ularni tinglashdan hech qachon charchamadi.



BARHAYOT SIYMO

RASULNING PATIMATI

Mashhurlarning ayollariga hamma havas qiladi. Go'yoki ularning hayoti har tomonlama to'kis, faqat baxtdan iboratday. Aslida-chi? Balki, el nazariga tushgan insonlarning rafiqalariga ikki karra og'irroqdir? Agar uning turmush o'rtog'i millat qayg'usi, she'r dardi bilan yashayotgan katta shoir bo'lsa-chi? Ular avvalo turmush o'rtog'i uchun nafaqat yashashga, balki u kabi o'ylab, u kabi sevib-nafratlanadigan, ayni paytda u bilan mavjud muhit orasida ko'priq vazifasini bajara oladigan yelkadosh bo'lishga majbur. Dog'iston xalq shoiri, avar millatining faxri Rasul Hamzatovning rafiqasi Patimat Hamzatova ham chin ma'noda shoirning yarmi, sadoqatli do'sti, sirdoshi va eng birinchi tinglovchisi bo'lgan.

Shoir Rasul Hamzat "Muhabbat ilmi" she'rida "Matematik emasman, menga qiziqmas raqam, kamina patematik, qancha ma'no bunda jam. Chunki butun umrimni bag'ishladim shu fanga, Chunki butun hayotim fidodir Patimatga" deb yozgan edi. U men patematika fanlari doktoriman deb hazillashardi.



MALIKCHO'L SHOIRI

YOXUD SHOIR ODIL HOTAM HAQIDA SOQIY NIMA DEYDI?

Qiziltepa degan Xudo yarlaqagan bir tabarruk joyda ham xuddi shunaqa bir muharir bor: Rahimjon! U ham butun Qiziltepaning kirom ahlini gazetasi sahifalarida yaxshiliklarga o'rgatdi va mudom ezguliklarga chorladi. Xalq ichidan doim shunday xalqparvarlar yetishib-chiqib turadi-da!

Odil Hotam o'z she'rlari inson zahmatlariga davo va malham bo'lishini orzu qildi. U respublikada katta-katta lavozimlarda ishlashi mumkin edi. Bunga aql-idroki, bilimi, fe'l-atvori kifoya qilardi. Ammo tug'ilgan yeri unga shu qadar aziz ediki, bu jonbaxsh, safobaxsh yerni tashlab ketishni istamadi. Karmana ham uni o'z issiq bag'ridan bo'shatmadi, tarix uni o'ziga qattiq chirmab olgan, ilhomboxsh poeziyani ham, ma'sum muhabbatini ham shu Xudo yarlaqagan yerdan topdi.

Karmana necha ming yillik tarixlarga shohid. Bu yerlarda ayqirgan Zarafshon, bu yerlarda modariy taraqqiyotning Sarmishi. Bu yerlarda ko'hna turk makonlari Konimex va bora-borguncha, keta-ketguncha Malikcho'l (uni o'zbeklar O'rtacho'l ham deyidilar. O, bu O'rtacho'lning kontinental sarin havosi!). Ming yillar osha karvonlar Karmana yo'llaridan o'tadi. Sal narida avliyomakon Buxoro, yana biroz berida buyuk Zarafshon tog'lari. Sir-sinoatga to'la Sarmish g'orlari. Minglarcha yillarning insoniy yodgorliklari. Naqsh-u nigorlari! Ularni tashlab qayerga ketsin shoir! Odil ularning barini tarixiy teranligi va mahobatida ifodalashga so'zlar, ta'riflar topdi. Karmanadagi tunlar, kun o'rtasi, sahar chog'laridagi sarin havolar fayziyob Zaminning yana qaysi go'shalarida topilarkan? Bularni qayerga tashlab ketsin Odil Hotam! U she'rlarida Karmana ruhini topdi. Odil Hotamni tarix bag'ridagi odam deb ta'rifladik. Bu Karmana va atrof shukuhining ham ta'riifi. Mana:

*Bobomeros eng teran qayg'u
Balxtutday chayirdir naqlim...*

Baytning mazmuni o'zina uning ustida shoshmasdan o'ylasangiz chiqadi. Karmana va atroflarining, chunonchi Konimexning butun ma'nosi mana shu chayirlikda. Bu chayirlikni cho'llar tarbiyalagan. Odamlar ham chayir, korafat. Qiyinchilik oldida qarab o'tirmaydi. Yo'l, chora topadi. Chayirlikda gap ko'p. Va yana puxtalik, pishiqlikda. Karmana shu uch odamiylik bilan asrlarki omonlikda istiqomat qilib keladi. Chayir, puxta, pishiq bo'lmasang, bu yerlarda adl oyoqda turolmaysan. Tarix yaratolmaysan. Yana shu chayirlikka o'xshagan chiyrangan so'zlar bor. Odil Hotam shunday so'zlarning aniq ta'riflarini topgan. Ular Konimex, Uchtut, Ko'hak quduqlarining zulmat tublarida yotadi. Va yoshi ham kamida o'n ming yildan kam emas. Mana:

*Zuvalasi pishiq, qaddi tik,
O'jar xalqim yerni gullatgan...*

"PISHIQ", "TIK", "O'JAR". Bular "CHAYIR"ni to'ldiradi. Chayir bosh belgi. Fazoviy belgi. Karmananing qiyofasini ko'rdingizmi, his qildingiz-

mi? Yurt xarakteri shakllangan manbalar, manshalar. Odil Hotam ijodi mana shunday ta'riflarni topolgan bilan badiiy qimmatli. U donishmandga ham o'xshaydi.

Biz turkiylar cho'llardan chiqqanmiz, cho'llar bilan tug'ishganmiz, cho'llarga tarixiy kindiklarimiz bog'langan. Cho'llarni sevamiz. Xudo bizni siylagan va cho'llarini bergan. Shuvoq, yantoq, saksovil, ermanni qavm-qarindosh tutganmiz. Bizdan yantoq isi keladi. Yantoq isli xalqmiz. Tog'lar boshimizda. Daryolar "OBID" deb ataydi. Ular tabiatning doimiy ibodatini doimiy ado etadilar.

Nafas olayotgan

g'ishtlardan hamon

Moziy gullarining

bo'ylari anqir,

shoir shunday yozarkan, buni bo'y-tumor qilib olgimiz keladi. Shoir yana yozadi:

Rabotim darvozasi

Kelajakka ochilgan.

Malikcho'l shoiri shunday deb yozgan. Uning darvozasidan chin olam ochilmoqda. Endi bu – bizning olamlarimiz.

Odil Hotamovning "Xirmon" deb nomlangan "Saylanma"sini o'qib zavqim toshadi. Cho'lidagi quduq oldida o'tirganday bo'laman. Kitobning nomi meni o'ylatadi. Qadimiy so'g'diy tilimizda "xarmana" Katta saroy degan ma'noni anglatarkan. Tarixni yaxshi bilgan Odil Hotam "Saylanma"ni "Xirmon" deb atab, uning ko'hna tarixiy ma'nosiga ham ishora qilgan. Bu xirmon atrofiga uning qator-qator shogirdlari, jumladan, Vafo Fayzulloham ham bo'lishgan, ular ustoz ijodidan, uning ma'rifatli so'zidan bahramand.

Odil Hotam yaltiroq she'r yozmasdi. Nondek sodda va odamning kuniga yarardi. Nonga bezakning hojati yo'q. She'rning bezagi ham, ehtimol, uning o'tmishida qolgandir. Ammo u – ma'rifatimizning rizq-ro'zi. Men har kuni ertalab eshigidan ikkita tandir non va ikki qator she'r kirib kelishidan quvonaman. Ular hayotga ajib mazmun bag'ishlaydi. Misol uchun shoirning "Saylanma"sidan manavi to'rt qator she'rni o'zim uchun yozib oldim:

Bulutlar ham horiydi,

Tug'iladi sharshara.

Ayol ko'zi yoriydi,

Davom etar shajara...

Odiljonning "Sharshara"ga "shajara"ni qofiya qilayotganini ayting. Bunga ota-bobo shoirimiz Lutfiyning tom zavqi kelgan bo'lardi. Bu yerdagi ajib aylanani ayting. Men o'zim she'rni aylana deb bilaman. Qalb va koinotning aylanasi. Uning tegrasida ilohiy turkumlar aylanadi. Odil Hotam she'rlarida xayol va hayotning shunday mo'jiza aylanalari ko'p. Faqat endi ularga aylana deb qarayapmiz. Bu aylanani spiral ham deyish mumkin. Spiralning yurakdan joy olishi oson va mustahkam. Shoiridan Katta saroyday she'rlar qoldi. Bular chin bepoyon Malikcho'l she'rlari.

Chindan, ularning zavqi bo'lak.

**Ibrohim G'AFUROV,
O'zbekiston Qahramoni**

Patimat Rasulga begona emas, ovuldoshi, qarindoshi, bolaligida unga ergashib yuradigan, o'zidan 8 yosh kichkina jingalaksoch qizcha edi. Yillar o'tib o'qishni bitirib kelgan Rasul hovlida yurgan navrasta suluvni boshida tanimadi. Nahot o'sha men bolaligida yig'lasa ovutadigan, onasi biror yumush bilan chiqib ketsa qo'rib o'tiradigan jajji qizaloq Patimat bugun bo'yi yetib go'zal qizga aylangan bo'lsa deb hayron qoladi va unga nisbatan ko'nglida bir ilqlik tuyadi. Hamzatov Patimatga bag'ishlangan she'rida "Qaniydi yana bir bor qaytsag-u bolalikka, onang meni chaqirib qaratsa meni senga..." deb yozadi.

Patimat unga nafaqat bolaligidagi do'sti, balki bir umrlik hayot yo'lida hamrohi bo'ldi. U san'atshunos bo'lganligi uchun adabiyotni, she'rni juda nozik tushunardi. Shoirning eng qattiqqo'l tanqidchisi ham, birinchi tinglovchisi ham, adabiy maslahatchisi ham xotini Patimat edi. Rasul har gal unga irod mahsulini taqdim etarkan, qarshisidagi tinglovchi ayovsiz ekanini his qilib turgan. Xotiniyning aytishicha, Hamzatov har bitta she'rini to'rt-besh martalab tahrir qilib, ko'ngli to'lmaguncha qayta-qayta ko'chirarkan, ba'zi she'rlarining o'chirib yozilgan qo'lyozmalari besh-oltitlab bo'p ketgan.

Shoirni yaqindan bilgan do'stlari "U rafiqasini juda avaylardi, uni xafa qilib qo'yishdan qo'rqardi, "xotiniyini hurmat qilmagan er mard emas" derdi, hamma masalada Patimatga suyanardi, bamaslahat ish ko'rardi", deb eslashgan. Tabiiy, ayoli ham aqli zakovati, mehribonligi, tadbirliligi va sabr-qanoati bilan bunga munosib edi.

– Bir gal Patimat ularning oilaviy do'sti, sobiq DASSR ministrlar soveti raisi Shaxrudin Shamxalovnikiga borganda Rasulning qaysidir xatosi tufayli ranjib, unga do'stona tanbeh berib

qo'yishini so'ragan, deb eslaydi yaqin do'sti Abdulatif. – Shamxalovning qo'ng'irog'idan hech qancha vaqt o'tmay, Rasul yugurib kelgan va eshikdan kirib-kirmay "Patimat, shu yerdamisan? Qanday qilib bitta kulging uchun butun davlatni hadya qilib yuboradigan Hamzat o'g'li Rasuldan shikoyat qilishing mumkin-a?" deya xitob qilgan. Hozir meni rosa koyisa kerak deb qo'rqib turgan Patimat boshqalar bilan qo'shib kulib yuboradi. Doim har qanday qaltis vaziyatlarda ham yumor bilan chiqib ketadigan shoir bu gal ham oson qutulib qoladi.

Qizi Patimatning xotiralaridan:

– Otam uchun ijodan muhim narsa yo'q edi. U ko'proq tungi payt yoki erta tongda turib she'r yozardi. Ijodxonasiga kirib ketdimi, uni hech kim bezovta qilmasdi, hamma oyoq uchida yurib, past ovoza pichirlashib gaplashardi. Dadam dunyoga kelayotgan she'rlarini baland ovoza ohangga solib qayta-qayta o'qiyotgani qulog'imizga chalinardi. Biz yana bir go'zal irod namunasi tug'ilayotganidan xabardor bo'lardik. To'g'ri, otam yumshoqfe'l, mehribon, bizga biror marta ovozi balandlatib gapirmagan odam edi. Ammo she'r yozayotganda u faqat o'zi bilan yolg'iz qolardi. Hatto onam ham behudaga bezovta qilmasdi.

Shoir xotiniga bag'ishlar ash'or:

"Sen o'zing quyoshim, oyim, yulduzim.

Sen yonimda bo'lsang jo'shadi bahor,

Agarda yo'q esang boshlarni kuzim..."

Mana ostonada turar o'sha nur,

Ijzat so'raydi uyga kirishga.

"Senmi? – jerkir shoir.

– Xudo xayr bergur,

Xalaqit bermagin ijod qilishga".



QIZIM PATIMATGA

Gullar taqsa bahor – seni o'ylayman,

Tushsa bog'larga qor – seni o'ylayman,

Tonglar otsa oppoq – seni o'ylayman,

Yoz xandon urgan choq – seni o'ylayman,

Qaytib kelsa qushlar – seni o'ylayman,

Ortga yelsa qushlar – seni o'ylayman.

Qirov tushgan bargga termulib bir dam,

O'ylayman men seni, unutib orom.

Aqlli qiz bo'lib bo'y yetgandirsan,

Men seni o'ylagach tun-u kun, mudom.

Sen haqda o'ylarim she'rga solsam, chin,

Bir devon bo'lardi – ulkan, ziyoda.

Imonim komil, sen bundoq kitobning

Ikkinchisin topmas eding dunyoda.

Biroq, afsus, hali bu devon yupqa,

O'tirmoqqa qunt-la toqatim ozroq.

Chunki vaqtini she'rga bergandan ko'ra,

Sen-la o'tkaganim men uchun sozroq.

suhbat qurgan dam

Kirmasin ularning birontasi ham!

Shoirlar-da, shundoq xoli on kerak,

Xalal berishdimi, tugar u, beshak...

Sho'rlik ko'nglim eshik chertilmasa der,

Dugonalaringga, o, tezroq chiqsin er.

Qara, qor avjiga chiqmoqda biram,

Mayli sochlaringga qo'nsin, yo'q ginam!

Shamol ham guvlasin – ishim yo'q, biroq,

O, nega u seni quchar beso'roq!..

Eslayman yozg'irib o'ikalarda yot,

O'islarda qolgan kulbarni bot-bot.

Tushimga kiradi purviqor tog'lar

Va uchqur tulporni minganim chog'lar.

Buloq ham yodimga tushadi takror,

Undan suv tutgandi u menga ilk bor.

So'qmoq esimdadir – shudring quchgan, nam,

Kuzatib qolardi meni subhidam.

Faqat yod etmadim men seni taqir,


Chunki unutmamim bir on ham, axir!

**Mirpo'lat MIRZO
tarjimasi**



TALQIN

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yaqinda mamlakatimiz yoshlari bilan bo'lib o'tgan samimiy muloqotidan olingan taassurotlar biz kabi navqiron ijodkorlarga ham ilhom va kuch bag'ishlab kelayotir. Uchrashuvda yoshlar bilan ishlash natijadorligini oshirish, ularga yanada keng imkoniyatlar yaratish chora-tadbirlari muhokama qilindi, faol yoshlarning takliflari eshitildi.



NAVQIRON

“YOSHLIK”

Muloqot avvalida Prezidentimiz azm-u shijoatli, navqiron yoshlar bilan uchrashib turganidan mamnunligini bildirib, ularning timsolida Yangi O'zbekistonning bugungi va ertangi bunyodkorlarini ko'rayotganini ta'kidlar ekan, ishtirokchilarga qarata “Yoshlik – bu qalbning oltin sozi” deya ardoqli shoirimiz Erkin Vohidovning “Yoshligim” she'ri yodga soldi va yoshlarni xalqimizning oltin fondiga qiyosladi.

Uchrashuv davomida turli sohalaridagi yutuqlari bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yoshlarimizning safi tobora kengayib borayotgani ta'kidlandi. Ayni kunlarda dunyodagi “top” oliygozlarda 1,5 mingdan ziyod talaba tahsil olayotgani O'zbekiston tarixida shu vaqtgacha kuzatilmagani aytiladi.

– **Buning bosh omili nimada, deb so'rasangiz, men, avvalo, yoshlarga munosabat davlat miqyosida butunlay o'zgarganida, deb javob bergan bo'lardim. O'g'il-qizlarimiz yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini sezib, o'zlariga beqiyos kuch olmoqda,** – dedi Prezidentimiz.

Yig'ilishda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yoshlarning o'zni naqadar muhim ekanini bir necha bor ta'kidlandi. Ularning inson kamoloti uchun zarur bo'lgan barcha sohalarida amalga oshirgan ulug'vor ishlari qatorida bugundan kechiktirmasdan – ayni damda bajarilishi zarur masalalarga Prezidentimiz atroflicha to'xtalib, qimmatli fikr-mulohazalarini bildirdi. Ma'naviy tarbiya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarni yot g'oyalardan asrash, bir fuqaroning muhim vazifasiga aylanishi shartligi qayd etildi.

Mutasaddilarga yoshlarning mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash, ularning dardiga malham bo'lib, muammosini hal qilib, turli g'oyaviy xurujlardan asrash, zararli axborotlardan himoya qilish ishlarini kuchaytirish vazifasi topshirildi.

Xususan, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda badiiy adabiyotning o'zni juda katta ekanini e'tirof etildi. Bundan qirq yil oldin ustoz shoir Erkin Vohidov tashkil etgan “Yoshlik” jurnali faoliyatini kuchaytirib, uni yana yoshlarimiz sevib o'qiydigan jurnalga aylantirish muhimligi ta'kidlandi.

Prezidentimizning bu so'zlari nainki yoshlarni, balki ijodkor-ziyolilarimizni ham to'liqlantirib yubordi. Negaki, bu jurnal o'zbek xalqining so'nggi qirq yillik tarixida muhim ahamiyat kasb etgan nashrdir. O'tgan yillar mobaynida jurnal ko'plab iste'dodlarni kashf etdi, millatning

adabiy-badiiy tafakkuriga, intellektiga, madaniyati va san'atiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Ijodkor-ziyolilarimizga ma'lumki, “Yoshlik” o'z davrida ijtimoiy-adabiy zaruriyat bilan maydonga kelgan. Taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonov jurnal tashkil etilgan kunlarni xotirlab shunday yozadi:

“O'zbekiston adabiy jamoatchiligi uzoq kutgan, bunga erishish uchun ko'p harakat qilgan “Yoshlik” jurnali ta'sis etilib, unga Erkin Vohidov bosh muharrir etib tayinlandi.

Yangi rahbar ijodiy jamoa borasida maslahat so'rab, “Guliston” jurnalining sobiq bosh muharriri, ustoz Asqad Muxtorga murojaat qiladi. Asqad aka “Guliston”da ishlagan Sa'dulla Siyoyev, Abdulla Sher, Erkin A'zam, Sulaymon Rahmon kabi ijodkorlar bilan birga meni ham “Yoshlik”ka tavsiya qiladi. Oradan ko'p o'tmay biz – eski “guliston”chilar yangi jurnalda ish boshladik. Shu ma'noda, “Yoshlik” jurnali asli “Guliston” bag'ridan unib chiqqan, deyshimiz ham mumkin”.

Asqad Muxtor ta'limini olib, Erkin Vohidov bilan baqamti ish boshlagan ustozlarimiz nashrga tayyorlagan jurnalning ilk sanalarini qo'lga olib o'qir ekansiz, xazina topgandek quvonasiz.

Nashrning dastlabki soniga elimizning ardoqli farzandi, davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov oq yo'l berar ekan: **“Yoshlik” bog'ida yangi-yangi buloqlar ko'z ochib, undan adabiyot ixlosmandlari o'z tashnaliklarini qondira olsinlar. “Yoshlik” bog'idan boshlangan jilg'alar adabiyotimizning jo'shqin, katta daryolariga borib qo'shilsin, butun-butun ellarning ma'naviy, ruhiy dunyosiga, zavol yetmas xazinasiga aylanib ketsin**”, deb yozgandi.

Muhtaram Prezidentimiz yoshlar bilan muloqot davomida “Yoshlik” jurnali faoliyatini kuchaytirish lozimligini alohida ta'kidlagani bejiz emas. Ayniqsa, kitobxon, adabiyotsevar yoshlarga: **“Kelgusida Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiylar qayerdan paydo bo'ladi? Bu ulkan vazifalarni kim bajaradi?**

Men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Albatta, bu ezgu g'oyalarni sizlar – bugungi Yangi O'zbekiston yoshlari amalga oshirasizlar”, deb ishonch bildirishi ijodkor ziyoli yoshlarimizni behad quvontirdi.

Azaldan donishmand xalqimiz adabiyotni tayanch deb bilgan. Shunga ko'ra, uning iste'dodli farzandi baralla **“Adabiyot yashasa – millat yashaydi**”, deb xitob qildi. Mamlakatimiz yoshlarining yagona adabiy-ijtimoiy jurnali faoliyatini qaytadan jonlantirishga qaratilgan rag'batni adabiyotimizga va millatimizga ko'rsatilgan yuksak e'tibor deb bilamiz.

Komil ishonch bilan aytamizki, bu borada amalga oshirilishi ko'zlangan har bir tashabbus uchun ijodkor-ziyolilar, yoshlar fidokorlik ko'rsatadi. “Yoshlik”ning yangi qadamlari, sohir nafasi har birimizga qutlug' bo'lsin!

Nurilla CHORIYEV,
“Yoshlik” jurnali bosh muharriri

“ILK DEVON”NI KIM TUZGAN?

Boshlanishi 1-sahifada.

Olimjon Davlatov mulohazalarini devon qator imloviy xatolar bilan ko'chirilgan, deya davom ettirib, Navoiy xattot Sultonali Mashhadiy faoliyatini yuksak baholab “qit'alarining birida Sultonalining qalami taqdir qalamidek xatosiz yozadi” degan ta'rifiga asoslangan holda shunday yozadi: “Bu esa u (ya'ni devon) Sultonali Mashhadiy tomonidan kitobat qilingani haqidagi fikrning haqiqiy ekanligiga shubha soyasini soladi”.

Biz o'z davrida yuksak xattotlik san'ati namunasi sifatida ko'chirilgan bir necha noyob qo'lyozmalar uchun Sultonali Mashhadiydan har qancha minnatdor bo'lsak arziydi. Bu qo'lyozmalar butun dunyoda temuriylar davri xattotlik san'atining g'ozal, nodir namunalari sifatida e'tibor qozongan va e'tirof qilinadi. Kotib ko'chirgan bu noyob qo'lyozmalarining aksariyati ilmiy-tanqidiy matn tuzish uchun manba bo'lgan. Biroq imlo qoidalarini unifikatsiya qilinmagan, adabiy me'yor (norma) aniq belgilanmagan davrda, sharoitda ish ko'rgan har qanday kotib, tabiiyki, ba'zi bir imloviy xatolarga yo'l qo'yadi. Bu holat nafaqat Sharq kitobat madaniyati uchun xos, balki o'z tarixiy taraqqiyotida qo'lyozma kitoblar bosqichini bosib o'tgan boshqa xalqlarga ham birdek tegishlidir. Bundan tashqari, yozma yodgorlik haqida muhim ma'lumot beruvchi, aytish mumkinki, asarning pasporti so'nggi sahifasi – kolofon hisoblanadi. Kolofonda esa Sultonali Mashhadiy o'z ism-sharifini hamda ko'chirilgan sanani 1465-yil deb (biz kolofon masalasiga yana qaytamiz) aniq qayd etgan.

Boshqa tarafdin, shoirning yoshlik yillarida yozilgan besh g'azaldan faqatgina bittasining “Ilk devon”dan joy olishi bu – devon tartib berayotgan yoxud uni buyurtma qilgan kishining xohish-irodasi yoki estetik didi bilan bog'liqdir. Yana bir jihati, o'rta asrlar sharoitida muallif tomonidan yozilgan asarning yozma shaklda qayd etilishi bugungidan butunlay farqlangan. Sultonali tomonidan ko'chirilgan mazkur devon esa xronologik shartli ravishda “Ilk devon” deb nomlansa-da, aslida terma devondir. Navoiyshunoslikda shoir devonlari manbashunoslik, adabiyotshunoslik aspektida bir qadar tadqiq etilgan bo'lishiga qaramay, terma devonlar maxsus tadqiqot obyekti bo'lganicha yo'q. Ushbu terma devonlarning mazmun-mundariyasi qanday estetik prinsip asosida saralab olinganligi, qaysi mavzudagi she'rlarning yetakchilik qilishini (ishqiy yoxud irfoniy) aniqlash hamda makon va zamon kesimida tadqiq etish, muayyan davr adabiy jarayonida tutgan mavqeyini belgilash hozircha ochilmagan qo'riq bo'lib turibdi. Eslatib o'tamiz, ayni muammolarni tarixiy-funksional metod (boshqa metodlar bilan uyg'un holda) o'rganadi. Lekin hozir gap bu haqda emas.

Butun umrini shoir qo'lyozmalari ichida o'tkazgan, mashhur kotibning xat uslubini yaxshi bilgan taniqli matnshunos Porso Shamsiyev “Sab'ayi sayyor”ning tanqidiy matniga yozgan so'zbo'shida ishga jalb etilgan manbalarga ilmiy tavsif bera turib, Sultonali ko'chirgan qo'lyozma yuzasidan shunday yozadi: “Ma'lumki, kotib biror asarni ko'chirganda, ilmiy saviyasi har qancha tuzuk va o'zi ehtiyoqkor bo'lishiga qaramay, ko'pincha xatning shakliga, texnikasiga diqqat qilib, mexanik ravishda xatolarga yo'l qo'yib yuborishi mumkin. Bu jihatdan, Sultonali Abduljalilga nisbatan, hatto M nuxsa kotibiga (M – “Xamsa”ning 1571-yili ko'chirilgan nuxsasi – A.E.) nisbatan ham ko'proq xato qiladi. Bu kishida so'zdgai ayrim harflarni tushirib qoldirish ko'p takrorlanadigan hodisalardan hisoblanadi”. (P.Shamsiyev “Sab'ayi sayyor” ilmiy-kritik tekst. T., 1956. 10-b.)

Qo'shimcha dalil sifatida yana shuni aytish mumkinki, Sultonali tarafidan Navoiyning hijriy 898/milodiy 1492-1493-yillarda ko'chirilgan yana bir terma devoni (O'ZR FA Shl fondi, №790) va hijriy 890/milodiy 1485-yili ko'chirilgan Hofiz devonini (O'ZR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi, №85) “Ilk devon” bilan cho'g'ishtirganda xat uslubi, matnning joylashuvi, harflarning yozilishi har ikki yodgorlikning kotibi bir kishi ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, terma devonda (№790) ayrim so'zlarning tushib qolishi, imloviy xatolar ham mavjud. (Biz ayni nuqtaga diqqatimizni qaratgan va bu borada o'zining samimiy, beg'araz yordamini ayamagan manbashunos Otabek Jo'raboyevdan minnatdormiz).

Alisher Navoiyning Sultonali bilan bergan bahosini esa uning xattotlik mahoratiga bo'lgan yuksak hurmati hamda e'tirofi sifatida qabul qilsak tarixan va mantiqan to'g'ri bo'ladi. Maqola muallifi “Ilk devon”dan joy olgan quyidagi satrlarni tilga oladi:



*Muvofiq kiydilar,
bo'lmish magar Navro'z ila bayram,
Chaman sarvi yoshil xil'at,
mening sarvi ravonim ham.*

Uningcha, mazkur g'azal shoirning yoshlik davriga mansub emas va matnda shunga ishora mavjud: “Matla'dan Navro'z bilan hayit bir kunga to'g'ri kelgani hamda bog'dagi sarv kabi yorining ayyom munosabati bilan yashil kiygani shoirga cheksiz ilhom va quvonch bag'ishlagani anglashiladi. Milodiy 1471 (hijriy 875)-yili Navro'z bilan Ramazon hayiti bir kunga to'g'ri kelganini hisobga olsak, bu g'azal ham shoirning o'rta yosh davri lirikasiga mansubligi ma'lum bo'ladi”. Birinchidan, muayyan g'azalning tahlili badiiy kontekstdagina to'liq ochiladi. G'azaldagi mavzu “bog'dagi sarv kabi yorining ayyom munosabati bilan yashil kiygani shoirga cheksiz ilhom va quvonch bag'ishlagani” bo'lib, bu ijodiy niyat baytma-bayt izchil ifodalangan. Ikkinchidan, matla'dagi “bayram” so'zi ikkinchi misradagi “ham” so'ziga nisbatan qo'fiya talabi bilan qo'llangandir. Bundan tashqari, shoirning yoshlik davriga mansub she'rlarini maxsus tadqiq etgan taniqli navoiyshunos Yoqubjon Is'hoqov ayrim g'azallarining ma'lum voqea munosabati bilan yozilganini chiroyli isbotlab bergan. Masalan, quyidagi g'azal bunga yorqin misoldir:

*Sarvinozim, yo'q ajab,
gar ro'zadin topmish malol –
Kim, suv ichmasdin topar bar
mujdalig' nozik nihol.*

Olimning aniqlashicha, 1456–1460-yillarda ro'za yoz oylariga to'g'ri kelgan va u Jomiyning shu mavzuga doir g'azali bilan izchil cho'g'ishtirib shunday yozadi: “Har holda, bu g'azal ro'zaning issiq kunlarida yozilgani aniq. ...Shuning uchun ham Navoiyning g'azali turmushga yaqin turadi, hayot bilan bevosita bog'lanish unga ma'lum darajada konkretlik va jon baxsh etgan”. (Y.Is'hoqov. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. T. 1965. 38-39-betlar) Muhtaram ustoz daqiq tahlillar orqali “Ilk devon”dan joy olgan talaygina she'rlarni shoirning yoshlik yillariga mansubligi, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini hamda yosh ijodkorning adabiy an'anaga nisbatan ijodiy munosabatini rad etib bo'lmas dalillar bilan ko'rsatib bergan.

Maqola muallifi Olimjon Davlatovning dalillaridan yana biri shuki, u “Ilk devon”dan joy olgan “Har gadokim, bo'ryoyi faqr erur Kismet anga” deb boshlanuvchi g'azaldagi “shohi G'oziy” sifati Sulton Husayn Boyqaroga nisbatan qo'llangan degan fikrga asoslanib shunday yozadi: “Tarixdan ma'lumki, shohi G'oziy – Husayn Boyqaro 1469-yili saltanat taxtiga o'tirgan. Demak, g'azal 1469-yildan keyin yozilgan. Bundan “Ilk devon” qo'lyozmasi ham kolofonda qayd etilgani kabi hijriy 870, milodiy 1465-1466-yili emas, balki keyingi davrda ko'chirilgani ayonlashadi”. Birinchidan, tarixiy manbalarda bu epiteto aynan 1469-yildan so'ng Sulton Husayn Boyqaroga nisbat berilgani xususida dalil uchramaydi. Ikkinchidan, Husayn Boyqaro harbiy harakatlarni, mulkgirlik siyosatini Abulqosim Bobur vafotidan (1457-yil) so'ng boshlagan hamda 1469-yilga do'ir dastlab Marv shahrini, 1458-yili esa Astrobod viloyatini zabt etgan va Xorazmning ayrim yerlarini qo'lga kiritgan edi. Bundan tashqari, Xondamir hukmdorni “xoqoni Mansur” deb alqasa, Navoiy “Sohibqiron” deya ulug'laydi. O'yashimizcha, yuqoridagi dalil “Ilk devon”ning ko'chirilish sanasini rad etish uchun yetarli emas. G'azalning mazmun-mohiyatiga kelsak, domlayi kalon Yoqubjon Is'hoqovning baytma-bayt atroflicha talqini quyidagicha: “Bu g'azalning har bir bayti yosh Navoiyning naqshbandiylik mazhabining (o'z davridagi, albatta) mohiyatini tushunib yetganligi va o'zi ham ana shu pozitsiyada turib, uning muhim g'oyalarni she'riy yo'l bilan targ'ib va tashviq qilganligini yaqqol ko'rsatib turibdi”. (O'sha kitob 63-bet). Ushbu mulohazalar bugun navoiyshunoslikda bir qadar formallashtirib qolgan “Navoiy 1476-yili

Jomiyga qo'l berib naqshbandiylik sulukiga kirgan” degan qarashni tubdan qayta ko'rishni taqozo etadi.

Olimjon Davlatov mazkur devonning faksimile nuxsasining nashri yuzasidan yozadi: “Bu holatni murakkab davr va hukmron mafkura bilan bog'liq ravishda talqin qilish, anglash to'g'riroq bo'ladi. Chunki Navoiyning nafis qo'lyozmalari, shohona bezakli kulliyotlari bo'lsa-da, ularning faksimile nuxsasini chop etishga sovetlarning na mablag'i, na rag'bat bor edi. Shoir qo'lyozmasini “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” qolipga tushirmoq uchun Griboyedov xuni evaziga keltirilgan qo'lyozmani “Eron va Rossiya urushining oldini olgan asar” sifatida talqin etish hukmron partiya siyosatiga mos keldi. Shu sabab Hamid Sulaymon Navoiyning barcha nuxsalaridan aynan shunisini tanlagan bo'lsa ajab emas”. Albatta, mafkuraviy yakkoahokimlik oqibatida ulug' shoir merosini (irfoniy-diniy asarlarini ayniqsa) to'liq, xolis, obyektiv o'rganishning iloji bo'lmadi. Bugun esa bosib o'tilgan yo'lni tanqidiy va falsafiy idrok etgan holda yanada ilgarilash uchun barcha imkoniyat bor. Noyob qo'lyozmaning nashri yuzasidan ko'zlangan maqsad borasida esa ustoz Hamid Sulaymonga quloq tutamiz: “Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining keng ko'lamda olib borayotgan ishlaridan biri Navoiy asarlarining tanqidiy teksti va akademik nashriga asos bo'ladi-gan, eng qadimiy va eng mo'tabar qo'lyozmalar seriyasini faksimile shaklida nashr qilishdir. Navoiyning o'z qo'li bilan yozilgan biror bir avtografi hozirgacha fan olamiga ma'lum bo'lmaganidan shoir qo'lyozmalarining faksimile nashrlari fan uchun favqulodda ahamiyatga egaligi shubhasiz”. Ayni maqsadda **“O'zbek adabiyoti qo'lyozma yodgorliklarining faksimile nashri seriyasi”** tashkil etilgan, “Ilk devon” (1968-yil) ushbu seriyaning dastlabki nashridir. Bugungi kunda Adabiyot muzeyi jamoasi ustoz boshlab bergan ezgu an'anani izchil davom ettirmoqda.

Kezi kelganda bir jihatni ham aytib o'tishni joiz deb bilamiz. Hamid Sulaymonning o'tgan asrning 60-yillari shoir lirik merosiga doir rus tilida yozilgan fundamental tadqiqoti – doktrinalik dissertatsiyasini o'zbek tiliga tarjima qilib, zarur ilmiy izoh, sharhlar bilan ta'minlab chop etish bugungi kunda Navoiyning yangi aniqlangan devonlari tevaragida sodir bo'layotgan o'rinsiz hayajonlarni bartaraf etib, ko'plab chigal nuqtalarni oydinlashtirishi mumkin.

“Ilk devon” bilan bog'liq muammoning qiziq bir jihati asarning kolofonida aks etgan bo'lib, navoiyshunoslikda bunga diqqatni qaratgan Porso Shamsiyev bo'ladi: “Demak, “Devon” ko'chirilgan (yoki tuzilgan) vaqtda kotib ham, Navoiy ham yig'ilik cho'g'ida bo'lganlar. Shunday ekan, kolofonda yozilgan “fi ayyomi ish-shayb” iborasini qanday tushunmak kerak? “Qarilik kunlarida” ma'nosini bildiruvchi bu arabcha iborani kotib kolofonda o'z namoyishini o'rnatib ko'chirish tarixiga (870–1465-yil) tirkab qo'rgan. Gap shundaki, tarix yoshlik davriga ochiq ishora qiladi, zikr etilgan ibora esa, qarilikni bildiradi. Biz ilgari bu iborani “bahor oylarida” deb noto'g'ri ma'no berib, masalani silliqib qo'ya qolgan ekanmiz. Aslida bunday emas ekan. Balki kotib, “fi ayyomish-shito” (“qish kunlarida”) demoqchi bo'lib yangilashib ketganmikin? Yoki yozilgan tarixda (870) chalkashlik bormikin?” (“Navoiy va adabiy ta'sir masalalari”. T., 1968. 305-306-betlar).

Xulosa qilib aytganda, “Ilk devon”ning tartib sanasi bilan aloqador muammolar xususida so'z yuritganda yoki salaflar tomonidan bajarilgan ishlarga baho berganda tarixiylik prinsipi ta'yanib, tanqidiy idrok etib, yangi bilimlar majmuaiga suyanib, mulohaza qilish maqsadga muvofiqdir.

Abdurasul ESHONBOBOYEV,
Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi ilmiy xodimi



ME'YOR UNUTILGANDA

Nahot orzularimiz to'y-to'ychiqdangina iborat bo'lsa?!

Boshlanishi 1-sahifada.

“Eldan qolmaslik” uchun osh berish zarurdir, ammo to'y qar-z-qavola bilan emas, “Bor – boricha, yo'q – holicha” tarzida o'tkazilishi kerak-da!

Bugun to'y, marosimlar borasida jamiyatdagi boy tabaqa ham, kambag'al qatlam ham me'yorni unutgandek. Xalq og'zaki ijodi millat tafakkuri tadrijini ko'rsatuvchi manbalardan ekani sir emas. O'zbek xalq ertaklarida pahlavonlar yetti kecha-kunduz, podshohlar esa qir-qir kecha-kunduz to'y qilishadi. Nazarimizda, barchamiz ertaklardagi pahlavon-u tojkorlardek to'y qilish vasvasasidan qutula olmayotgandekmiz. Aks holda, jamiyatimizda kuchayib borayotgan to'yparastlikni nima deb baholash mumkin?

YUZ YILLIK DARD

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidlik harakati namoyandalari millat taraqqiyosiga to'sqinlik qilayotgan illatlarga qarshi mardonavor kurashgani ma'lum. Taraqqiyparvar jadidlar, jumladan, to'y-to'ychiqlarda haddan ziyod isrof-garchilik avj olganini keskin tanqid qilganlar. *“Bizni kemirguvchi illatlar deganda zahm-u maraznimi gumon etarsiz? Yoinki sil, silariya va moxovliknimi dersiz? Yo'q, andan ham yomonroq va andan ham jonxarosh, bevoya, xonavayron va g'arib etguvchi bir dard, biz – turkistoniyalarni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg'acha istilo etib, butun tirikligimizg'a sarilgan va bizni inqirozg'a va tahlilg'a va jahannamg'a yumalataturgon to'y, aza ismindagi ikki qattol dushmani derman”,* deb yozadi Turkiston jadidlarining sardori Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yili “Oyina” jurnalida chop etilgan maqolasida. Mutafakkir bobomiz uch kunlab to'y qilib uylangan navjuvon yigitlar bir umr qarzdan qutula olmay bor-budini sotishga majbur bo'layotganini nadomat ila yozarkan, dabdabali marosimlarni “musibat” deb ataydi. Ulug' shoir Abdulhamid Cho'p'onnig quyidagi misralari ham Behbudiy fikrlariga hamohang yangraydi:

“Maktaba yo'q bir tiyini, to'yga ming so'mlab berur,

Chorasi mushkul kasalga mubtalodir bizni(ng) xalq”.

Qarangki, oradan bir asr o'tgan bo'lsa-da, jadid oydinlari davo istagan darddan hamon xalos bo'la olmabmiz. Hali-hamon dabdabali to'y va xurofiy aza marosimlari sabab ko'pchiligimiz yanglish so'qmoqlarda uloqib yuribmiz. Gohida keraksiz tashvishlar ummoniga g'arq bo'lib *“Maqsad na edi jahona kelding?!”* degan so'roqni ham unutil qo'yayotirmiz.

MISQOLLAB YIG'IB, BOTMONLAB SOVURMAYLIK

Aksar zamondoshlarimiz to'yga shunchaki bir oilaviy marosim, ikki yoshning nikoh rishtasi ila bog'langanini elga ovoza qilish yoki o'g'il farzandning qo'lini halollash tadbiri deb emas, balki o'zini yon-atrofdagilarga ko'rsatib qo'yish vositasi deb qarayotgani achinarlidir. Agar xomcho't qilib ko'rilsa, nahorgi osh yoki nikoh bazmi dasturxonni uchun ketadigan xarajat “ot bilan tuya” bo'lmaydi, ya'ni u qadar katta emas. Ammo to'ygacha va to'ydan keyin bo'ladigan yuz bir nomdagi marosim-u yig'inlar hatto o'ziga to'q oilalarning ham sillasini quritishi aniq. Sovchilikdan boshlangan bordi-keldi nishona berish, quda tanishuv, non sindirish, fотиha kabi marosimlarga ulanib ketadi. “Bor tovog'im, kel tovog'im” deganlaridek, har ikki tomon bir-biriga sarpo-suruq, latta-putta, dov-dastgoh yuboradi. Sirasi, turfa xil marosimlar uchun to'ydan ko'proq mablag' xarajlaydi. To'ydan keyin esa yuz ochdi, charlar, ota ko'rdi, sep yoydi, quda chaqirdi, kuyov chaqirdi, kelin chaqirdi, tog'ora yuborish kabi yana o'nlab nomdagi marosimlar! Hududlarimizga qarab marosimlarning nomi, ko'lamli o'zgarib boradi. Aqika,

muchal to'yi kabi marosimlarni dabdaba-yu as'asa bilan o'tkazish ham an'ana hukmiga kirmoqda. Uch, yetti, payshanbalik, yigirma, qir-qir, yil oshi, mato ulashish, qovun tarqatish kabi dafn va motam bilan bog'liq ortiqcha tadbirlar esa alohida tadqiqot mavzusidir.

Alqissa, to'y marosimlarida o'z yutuqlarini ko'z-ko'z qilish, mol-davlati bilan maqtanishga intilish kuchayib bormoqda. Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”



dramasi esingizdami, to'y atalmish orzu-havas qopqoniga tushgan yoshlar fojiali tarzda halok bo'ladi. Muallif dramani bejiz “Turkiston maishatidin olingan to'rt pardali fojia” deb atamagan. Afuski, bugun ham shu mashmasha ortidan bo'ynigacha qarzga botayotgan oilalar ko'plab topiladi. To'y kuni o'nlab xorij markabini yollagan kuyovto'ra to'pda keyin hatto avtobusga ham yo'l-kira topa olmay qolishi-da achchiq haqiqat.

Muhojirtda ishlayotgan vatandoshimiz igna bilan quduq qazib pul topadi. Qahraton sovuqda daraxt kesadi, jaziramada imorat ko'taradi, kunni kun, tunni tun demay hammolik qiladi. Uch-to'rt tanga topish uchun musofir o'lkalardagi ishboshilarning achchiq-tiziqgaplariga, ta'na-dashnomlariga ham sabr qiladi. Keyin esa... misqollab yig'ilgan mablag' botmonlab sovruladi.

Asosan mahallalarda, aholi gavjum hududlarda joylashgan to'yxonalardagi shovqin-suron ham e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalardan biridir. Mehmonlar to'y egasining shodligiga sherik bo'lish o'rniga tezroq ma'rakani tark etish tadorigini ko'rishi, nikoh bazmlarimiz yosh-yalangning diskoteka maydoniga aylanganiga ham quloqni qomatga keltiruvchi shovqin sababchi. Bu jihatdan, to'yxonalarning akustikasini standartlar asosida bo'lishini qat'iy nazorat qilish ham sog'liqqa, ham kayfiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ENG BARAKALI NIKOH

To'y-hasham, ma'raka marosimlarini o'ta dabdabali tarzda o'tkazish, bu jabhada nosog'lom raqobatning avj olishi nainki sof insoniy fitratga, muqaddas dinimiz ta'limotlariga ham to'g'ri kelmaydi. Yurtimizning obro'li ulamolari, nuroniy otaxonlarimiz, kayvonilarimiz ham bu haqda ko'pdan beri va'z-nasihat qilib keladi. Islom diniga ko'ra oila qurmoqchi bo'lgan yigit kuchi yetganicha, o'zini ortiqcha urintirmay ziyofat – valiyima qilib berishi sunnat sanaladi. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ham uylanganlarida imkonlari boricha dasturxon yozganlar. Oyisha roziyallohu anhodan rivoyat qilingan hadis sharifga ko'ra, Payg'ambarimiz “Eng barakali nikoh – xarajatlari yengil bo'lganidir” deb marhamat qilganlar. Ustoz ulamolar ta'kidlaganidek, to'y marosimlarini o'tkazishda eng maqbul yo'l – isrof ham, baxillik ham qilmay o'rta yo'lni tutmoqdir. “Islom dinini og'irlashtirmang, yengillashtiring!” degan oltin qoida to'y va aza marosimlariga ham taalluqli, albatta.

To'ylar ham millat ma'naviyatining ko'zgu-si, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni to'ylar qanday o'tayotganiga qarab millatning ma'rifiy saviyasi, axloqiy darajasi va ertangi kun uchun maqsad-mo'ljallari haqida xulosa yasash mumkin.

To'y sabab ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlarimiz, xalqona qo'shiq va laparlar, baxshichilik an'analari, maqom yo'l-usullari, raqslar asrlar sinovidan eson-

ibratli holatlarni har qancha targ'ib-tashviq etsak kam.

ORZUGA AYB YO'QMI?

Tarixga nazar tashlasak, to'ylarni tartibga solish harakatlari kuni kecha boshlanmaganiga amin bo'lamiz. Manbalarga ko'ra, XX asr boshlarida Buxoro amirligida to'y-hashamlar bir necha kun, gohida haftalab davom etgan. Mehmonlarga kuniga anvoyi taomlar tortilgani yetmagandek, chopon kiydirish, shirinlik ulashish ham urfga kirgan. Shu sabab Amir Olimxon 1911-yilning martida to'ylarda isrof-garchilikka barham berishga doir farmon chiqargan. Cheklovlarini buzganlarga darradan tortib o'limga qadar og'ir jazolar belgilangan. Sovet zamonida xatna to'yi taqiqlangani, komsomolcha, ya'ni “qizil” to'y joriy etilgani katta avlodning yodida, albatta.

Yaqin tariximiz va keyingi yillarda ham to'ylarni tartibga solishga doir bir qator hujjatlar qabul qilindi. Bu borada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat kengashlarining 2019-yil 14-sentyabrdagi qo'shma qarorini eslash joiz. Voqelik yana bir karra tasdiqlamoqdaki, har qancha hujjatlar qabul qilinmasin, rasmiy taqiqlar joriy etilmasin, odamlarning ong-u tafakkuri o'zgarmas ekan, vaziyatni isloh qilish amrimahol.

Koronavirus pandemiyasi davrida to'y-hashamlar tabiiy ravishda ixchamlashdi. Qarangki, odamlar mahallada duv-duv gap bo'ladigan to'y o'tkazmay ham risoladagidek yashashi mumkin ekan. Pandemiya-dan keyin yurtimiz bo'ylab aksar to'yxonalar ta'lim markazlari, xususiy maktablarga aylandi. Ma'naviyat sohasi vakili sifatida bizni yemakxona-yu to'yxonalardan ko'ra ma'rifat, madaniyat maskanlari ko'paygani quvontiradi, albatta.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti o'tgan yili aholi o'rtasida oilaviy ajralishlar bo'yicha so'rovnoma o'tkazdi. So'rovnomada jami 350 mingga yaqin respondent qatnashdi. So'rovnoma natijasiga ko'ra, ajralishlarga sabr-qanoatning yo'qligi, urf-odat va marosimlarning serxarajatliligi, ijtimoiy tabaqalanish kuchaygani asosiy sabablar sifatida ko'rsatilgan. O'z navbatida, har ikki kishidan biri kamxarj to'y yoki boshqa oilaviy tadbirni ixchamroq o'tkazishga salbiy munosabat bildirgan. Ularning fikriga ko'ra, imkonni bo'la turib kamxarajat to'y qilish kishining jamiyatdagi obro'siga yomon ta'sir ko'rsatarkan...

To'y ayrim hollarda oilalar barbod bo'lishiga olib kelayotgani haqroq. Ayni chog'da, jamiyat to'y atalmish ko'p asrlik tarixga ega udumdan voz kecha olmaydi. Chunki to'y insonning jamiyat va oila oldidagi burchini his etishida muhim vosita sanaladi. Demak, marosimlar borasida mo'tadil yo'lni tutmoq, oltin o'rtaliqni topmoq lozim.

To'ydan yurtimizga xorijiy sayyohlarni ko'proq jalb etishda ham foydalanish mumkin. Jumladan, har bir hududning to'y bilan bog'liq o'ziga xos udumlarini xalq bilan bamaslahat belgilab olish, turistlarni “buxorocha to'y”, “surxoncha to'y”, “farg'onacha to'y” kabi milliy marosimlarga jalb qilish choralarini ko'rish lozim.

Majburlov, cheklov choralarini haqida gap ochsak, ehtimol, jamoatchilikka u qadar ma'qul kelmas. Ammo ba'zi hududlarda vaziyat shu holatga kelganki, deylik, katta ma'raka qilganlarni ma'lum muddatga ijtimoiy daftarlarga kiritmaslik, ularning zimmasiga ijtimoiy majburiyat yuklash kabi choralarini ko'rish lozimdek tuyuladi.

“Orzuga ayb yo'q”, deydi dono xalqimiz. Inson yuksak maqsad-marralarni ko'zlagani qanday soz! Ammo orzu-istaklarning faqat to'y-hashamdangina iborat bo'lib qolishini aslo oqlab bo'lmaydi. Jahonga teran nigoh bilan boqaylik: mo'ysafid kurrayi arz ko'z o'ngimizda o'zgarmoqda. Mutaraqqiy millatlar Mars kabi sayyoralarini ishg'ol qilish ustida bosh qotirmoqda, peshqadam olimlar ko'z ko'rib quloq eshitmagan kashfiyotlarga qo'l urmoqda. Taraqqiyoti shiddati oshib ketgan bugungi davrda oyog'imizga tushov bo'layotgan kamchilik va qusurlardan xalos bo'lib, yuksak ilm-ma'rifat cho'qqilari sari intilmog'imiz darkor. Falon tonna osh damlash, falon ming kishiga dasturxon yozish bilan emas, balki zamonaviy maktablar, ulkan kutubxonalar barpo etish borasida musobaqalashmoq zamoni bugun!

Olimjon DAVLATOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

JAHON AYVONIDA

CHEGARA TO'G'RISIDAGI SHARTNOMA IMZOLANDI

Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston prezidentlari Sadir Japarov va Emomali Rahmon davlat chegarasi to'g'risidagi shartnomani imzoladi.

Marosim Bishkek-dagi “Intymak Ordo” binosida Rahmonning Qirg'iz Respublikasiga davlat tashrifi doirasida o'tkazildi.



Shundan so'ng prezidentlar videoaloqa orqali qirg'iz-tojik chegarasidagi to'rt yildan ortiq vaqt davomida yopiq bo'lgan “Qayrag'och” va “Qizil-Bel” nazorat-o'tkazish punktlarini ochdi.

BRAZILIYADA MINGLAB DARAXTLAR KESILDI

Braziliyaning Belem shahrida o'tkaziladigan COP30 iqlim sammiti uchun Amazonka o'rmonlarini kesib o'tuvchi to'rt qatorli yangi avtomobil yo'li qurilmoqda.

Yo'l noyabr oyida bo'lib o'tadigan anjumanga 50 mingdan ortiq odam, jumladan, jahon mamlakatlari yetakchilari tashrif buyuradigan shaharga transport qatnovini yengillashtirish maqsadida qurilmoqda.



Shtat hukumati avtomagistralning muhim ahamiyatini ta'kidlamog'da, ammo mahalliy aholi vakillari va ekofaollar uning atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siridan shikoyat qilmoqda.

TRAMP ROSSIIYAGA QARSHI KUCHLI SANKSIYALARNI VA'DA QILDI

AQSh prezidenti Donald Tramp Rossiyaga qarshi “halokatli” sanksiyalar joriy etishga tayyor ekanini ma'lum qildi. Uning so'zlariga ko'ra, Moskva Ukrainadagi urushni davom ettirsa, iqtisodiy jazolar yanada kuchaytiriladi.

Tramp BBC bilan suhbatda Rossiya uchun “moliyaviy jihatdan og'ir oqibatlar” yuz berishi mumkinligini ta'kidladi. U qo'llanajak choralarini “halokatli” deb atab, Kreml uchun yangi iqtisodiy cheklovlar tayyorlanayotganini bildirdi.



ISROIL G'AZODA HJUMNI KUCHAYTIRDI

Isroil kuchlari o'tgan kun ichida G'azo hamda G'arbiy sohilda 11 falastinlikni o'ldirdi. Falastin manbalariga ko'ra, 8 kishi G'azoda, 3 kishi esa G'arbiy sohilda halok bo'lgan.

19-yana vardi o'tashkesim kelishuvidan beri G'azoda 137 kishi halok bo'lgan. Isroil harbiylari ular xavfli shaxslar ekanini iddao qilmoqda, biroq qurbonlarning aksariyati tinch aholi, jumladan, ayollar va bolalar bo'lgani ma'lum qilingan.



SAAKASHVILI YANA UCH YIL “O'TIRADI”

Tbilisi shahri sudi Gruziyaning sobiq prezidenti Mixail Saakashvili ni umumiy hisobda to'qqiz yilga ozodlikdan mahrum qildi, deya xabar berdi Interpress agentligi. U byudjet mablag'larini katta miqdorda talon-toroj qilishda aybdor deb topilgan.

2004-yildan 2013-yilgacha prezidentlik qilgan Saakashvili chet elda bir muddat yashagandan so'ng 2021-yilda Gruziyaga qaytgach, davlat byudjetini talon-toroj etish va chegarani noqonuniy kesib o'tishda ayblanib, hibsga olingan va olti yilga qamalgandi. Yangi hukm bilan uning qamoq jazosi yana uch yilga uzaytirildi.



GERMANIYADA AEROPORT XODIMLARI NAMOYISH O'TKAZDI

Germaniyada aeroport xodimlari ish tashlashi oqibatida yarim milliondan ortiq yo'lovchilarning parvozi bekor qilindi.

Frankfurt va Myunxen osmonida havo harakati deyarli to'xtab qolgan. “Ver.di” Mehnat birlashmasi 2,5 million ishchi nomidan ish haqini 8 foizga oshirish talabini qo'ygan.



“Miya o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas.

Abdurauf FITRAT



TARIX VA TAQDIR

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Ismoil G'asprali tomonidan asos solingan jadidlik harakati faoliyatiga teran nazar solsak, bu turkiy musulmon xalqlar o'tmishdagi noyob hodisa ekaniga amin bo'lamiz. Negaki, strategik istiqbolli g'oya, amaliy faoliyat bobida bu qadar ko'lamli, oqil va shiddatli harakat tarixda kamdan kam yuz bergan.

Jadidlار tarix uchun g'oyatda qisqa bo'lgan muddat – atigi 20-30 yillik davr ichida xalqning ijtimoiy ongini o'zgartirib, turkiy millatlarning jipsligi uchun xizmat qildilar.

Ana shunday favqulodda hodisa, tabiiyki, Xorazmni ham qamrab olgan va vohadan yetuk namoyandalar yetishib chiqishiga asos yaratgan. Ma'lumki, jadidlik harakatining ibtidosi boshlang'ich maktab edi.

Xorazmda jadid maktablari Xiva xoni Feruzxon (1844–1910), valiahd va keyinchalik 1910–1918-yillarda hukmdorlik qilgan Asfandiор hamda bosh vazir Islomxo'janing tashabbusi va mablag'i asosida tashkil etilgan.

Qrimda nashr etilgan "Tarjimon" gazetasi-ning 1887-yil 15-avgust sonidagi xabarga ko'ra, "Xivada xon tarafidan maktab ochilib, unda bolalar rus tili o'rganadilar; maktab xon sarmoyasi bilan ta'minlanadi; maktab uchun 34 xonali bino qurilgan".

Professor Zaynobiddin Abdirashidovning yozishicha, "1898-yil Xivada orenburglik Muhammad Vafо va mulla Abdurahmon afandilar tomonidan usuli savtiya (jadid) maktabi ochiladi. Lekin bir oy davom etgan faoliyatidan keyin maktab Xivadan Urganch shahriga ko'chiriladi".

1907-yil 30-martda "Tarjimon" gazetasi Asfandiorning "Xiva valiahdi usuli savtiya maktabi ochtirish uchun Barudiy madrasasini tamomlagan ikki muallimni chaqirtirdi. 25-fevralda keldilar, kelishlari bilan maktabda dars boshlaganlari haqida"gi xabarini ham chop qilgan. Shuningdek, 1905-yilda xon amaldori Muhammad mahram ham Dishonqal'adagi uyida jadid maktabi faoliyatini yo'lga qo'ygan.

Shu tarzda Xorazmda 1898-yilda dastlab tashkil etilgan usuli savtiya ta'lim maskanlari "Maktabi mahramiya" (Muhammad mahramning mablag'iga barpo etilgan maktab), "Maktabi jadid" (Islomxo'janing mablag'iga barpo etilgan) deya nomlangan.

Aynan yuqoridagi jadid maktablari o'qituvchilar qatorida qozonlik, orenburglik ma'rifatparvarlar ham faoliyat ko'rsatishgan. 1907-yilning 28-mayida valiahd Asfandiор va bosh vazir Islomxo'ja, 31-may kuni esa qozikalon Salimoxun boshchiligidagi mudarris, oxunlar tomonidan har ikkala maktabning 113 nafar

QARDOSHLIKNING OYDIN MAKTABI

talabasi imtihon qililib, a'lo baho olishgan. Imtihondan so'ng Asfandiор, Islomxo'ja va qozikalon Salimoxun o'zaro maslahatlashib, Qozon shahridan ushbu maktablar uchun yana ikkita o'qituvchi taklif qilishadi. Shuningdek, Xorazmda jadid maktablarini ko'paytirish, o'quv jihozlari, adabiyotlar bilan ta'minlash, ulardagi ta'lim sifatini nazorat qilish uchun tatar pedagogi Ramazon Muhammad Karimzoda maktablar noziri qilib tayinlangan.

Ismoil G'asprali Qrimda asos solingan jadid maktablarining Xorazmdagi faoliyatini "Tarjimon" gazetasida doimo yoritib, qo'llab-quvvatlab turgan. 1908-yil 18-yanvarda mazkur gazetada "Xivada usuli jadida maktablari" nomli maqola chop etiladi. Unga ko'ra, "1898-yil dekabrda Orenburgdan Muhammad Rifo Karvonboshi bilan muallim Abdurahmon afandi Xivaga keldi va bir oy turdi, taassub kuchilligidan Urganchga ketdi va usuli savtiya maktabi ochib, 1 yil bola o'qitdi, vafot etdi. Keyinroq xon amaldori Muhammad mahram ochgan maktab xalq tarafidan yaxshi qabul qilindi va xalq 1907-yili valiahdga murojaat qildi. Natijada Muhammad Rifo Karvonboshi vositasida Qozondan ikki nafar pedagog taklif qilindi. Tatar o'qituvchilari Xivadagi "Maktabi mahramiya" va "Maktabi jadid"ga muallim qilib tayinlandi. Bu maktablarga nozir tayinlandi, may oyida imtihonlar bo'ldi, valiahd bularni ko'rib Qozondan bir muallim chaqirib yana bir maktab ochdi. Kelayotgan may oyida rushdiya maktabi ochiladi, uning sobibi vazirlardan Islomxo'ja, muallimi Ahmad Nuriddin".

Ismoil G'asprali 1908-yilning 4-aprelida yana shu gazetada maqola chop qilgan va unda "O'tgan yil Xiva xoni Qozondan ikki muallim chaqirib ikki usuli jadid maktablari ochgan, muallimlar Yusuf va Husayn afandi. 4-5 oy o'tgach, imtihonlar bo'ldi. Yangi o'quv yilidan Qozondan uch muallim chaqirildi, ular ishga jiddiy kirishdilar", deb xabar beradi.

Shu tarzda Ismoil G'asprali Xorazmda jadid



pedagoglari ko'payayotgani, ularni bevosita hukmdor Feruzxon, valiahd Asfandiор va bosh vazir Islomxo'ja singari taraqqiyparvarlar qo'llab-quvvatlayotganini e'tirof etgan holda, "Tarjimon" gazetasining 1909-yilgi 40-sonida "Maktablarning ochilishi, ko'payishi lozim. Boqchasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaga endi to'g'ri kelmaydi, yarashmaydi. Endi Xivaning o'zidan muallimlar yetishtirmoq kerak va Xivada chop etiladigan alifbolarni yaratmoq kerak", deya strategik vazifa qo'yadi.

Ana shu ma'lumotlardan ayon bo'ladi, Xorazmda jadid maktablarini ochish 1898-yildan boshlangan va XX asr boshlariga kelib nafaqat Xiva va Yangi Urganch, balki Gurlan, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Toshhovuz shaharlarida ham tashkil qilingan. Bitiruvchilar orasidan Bekjon Rahmon, Nizomiddinoxun, Inoyatoxun, Jumaniyoz Ollaquliyev, Ibrohim Ollaquliyev, Qurbon Beregin, Karim Boltayev, Maryam Sultonmurodova singari ko'plab namoyandalar yetishib chiqdi.

Xorazmdagi jadid pedagoglari orasida nomlari mashhur o'qituvchi sifatida e'zozlanadigan, asli qozonlik bo'lgan quyidagi shaxslarga to'xtalib o'tsak.

Salim Abdulla – 1911-yilda Islomxo'janing taklifi bilan Xorazmga kelgan. Xivadagi jadid maktabi va 1920-yildan keyingi Xorazm respublikasi, 1925-yildan so'ng Xorazm okrugi davridagi maktablarda faoliyat ko'rsatgan.

Maryam Agisheva – Xorazmdagi jadid maktabi va respublika, okrug davridagi maktablarda faoliyat olib borgan pedagog. Islomxo'ja tomonidan 1907-yilda Qozon shahridan taklif qilingan. Xiva shahridagi qizlar maktabida, so'ng Yangi Urganch shahridagi jadid maktabida o'qituvchilik qilgan. Maryam Agisheva, Zaynab Siddiqova singari Xorazmga Qozondan kelib ta'lim taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan pedagoglarning hayoti va faoliyati alohida badiiy va ilmiy asarlarga mavzu bo'la oladi.

Nuriddin Ahmad – Xivadagi jadid maktabida faoliyat ko'rsatgan tatar pedagogi. Islomxo'ja tomonidan tashkil etilgan maktabda o'qituvchilik qilgan. Ushbu ta'lim maskani "Maktabi rushdiya" (o'rta maktab) deya nomlangan. O'z davrida Ahmad Nuriddinning xorazmlik o'quvchilarga berayotgan ta'limi yuqori baholanadi. Uning hayoti va Xorazmdagi pedagogika taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, afsuski, o'rganilmagan.

David Bakirov – XX asr boshlarida Xorazmdagi jadid va 1920-yildan keyingi sovet maktablari faoliyat olib borgan. Islomxo'ja tomonidan Xivaga taklif qilingan. Nurillaboy saroyi qarshisidagi Sobir mahramning jadid maktabida o'qituvchilik qilgan. 1920-yilda xonlik tugatilgach, respublika va 1925-yildan so'ng Xorazm okrug davridagi maktablarda faoliyatini davom ettirgan.

Muxtor Bakirov – David Bakirovning ukasi. Ular Xorazm ta'lim taraqqiyoti uchun katta hissa qo'shishgan.

Yusuf Ahmedov – 1907-yilda Feruzxon tomonidan Husayn Ibragimov bilan birga taklif qilingan va Xivadagi jadid maktabida o'qituvchilik qilgan. Yusuf Ahmedov ishlagan maktab tezda o'quvchilar, ota-onalar e'tiborini tortib, ta'lim sifati bo'yicha Xorazmdagi rus-tuzem, jadid va an'anaviy eski maktablar o'rtasida obro' qozongan. Xorazmdagi ta'lim taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan tatar qardoshlarimiz ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Afsuski, ularning fidoyi faoliyati atroflicha tadqiq qilinmagan.

Shu bois Qrim, Qozon, Orenburg shaharlaridagi arxivlar, kutubxonalarga ekspeditsiya uyushtirib, turkiy xalqlar milliy uyg'onishi yo'lida kamarbasta bo'lgan oydinlar faoliyatini ilmiy o'rganish biz olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Umid BEKMUHAMMAD,
Xorazm Ma'mun akademiyasi
katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

TEATR

O'zbek Milliy akademik drama teatrida mazkur teatrning 110 yilligiga bag'ishlab yozuvchi Isajon Sultonning "Ma'suma" romani asosida rejissyor Asqar Xolmo'minov sahnalashtirgan "Birinchi qaldirg'och" ("Ma'suma") spektakli namoyish etilmoqda. Spektakl XX asrda Toshkentda yashab ijod etgan, jadidlik va qatag'on davri, Ikkinchi jahon urushi voqealariga guvoh bo'lgan, uning og'riqli asoratlari boshidan o'tkazgan o'zbek teatrlarining ilk aktrisalaridan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ma'suma Qoriyeva haqida.

Bu fidoyi san'atkor Naim Karimov, Shuhrat Rizayev, Sirojiddin Ahmad singari olimlarimizning tadqiqotlari, maqolalari, o'zbek teatrlarining darg'alaridan biri – ustoz aktyor Zikir Muhammadjonovning xotira-essesi, yozuvchi Isajon Sultonning "Ma'suma" romani orqali tanigan edik. Ne baxtki, aktrisaning fojiali taqdiri bugungi kunda ulug' teatrimiz sahnasida tomoshabin bilan yuzmayuz turibdi.

Asqar Xolmo'minov tarixiy haqiqatni boricha sahnaga olib chiqishga harakat qilgan. "Sahna tili" orqali asarni jonlantira olgan aktyorlarning ajoyib ijrosi, ssenograf rassom Mirjalol Xoliqovning sodda, biroq ramzlarga boy sahna dekoratsiyasi, Sevara Zunnunovanning XX asr boshlari va 40-yillarga oid sahna liboslari, kompozitor Ayapbergen Otenovning spektakl ruhياتiga xos musiqasi tufayli asarning o'ziga xos sahnaviy talqini dunyoga kelgan. Rejissyor hamda dramaturg Shahboz Fayzullayev romanni mahorat bilan spektakl inszenirovkasiga aylantirgani tufayli g'oyaviy yechimlarda, jadidlarning taraqqiyparvar fikrlari aks etishida, har bir qahramon nutqida o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi.

QANOTI QAYRILGAN QALDIRG'OCH



Yaxshi dramaturgiyada "spektakl ichidagi spektakl" degan uslub bor. "Ma'suma"da ham bosh qahramon hayotidagi turli holatlardan kelib chiqqan holda ushbu uslub qo'llangan. Bu holatlar bosh qahramonning teatrga ilk qadam qo'yishida sahnalashtirilgan Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmu?" (arzchi xotin), G'ulom Zafariyning "Halima" (Halima), Hamzaning "Boy ila xizmatchi" (Jamila), Shekspirning "Otello" (Emiliya) asarlaridagi rollar ijrosida ichki hissiy kechinmalar orqali ifodalangan. Rejissyor hayot "teatri" tomoshalari bilan teatr sahnasi tomoshalari orasidagi masofa naqadar yaqinligini mahorat bilan ko'rsata olgan. Ma'suma rolini aktrisa Lola Elto'yeva va Dilnoza Kubayeva ijro etishgan. Lola Elto'yevaning "Ma'suma"sida ichki dardni, og'ir-bosiqlik bilan xulosa chiqara olishni, uzoqni ko'ra bilish, onalik iztiroblari, haqiqat uchun kurashuvchanlikni ko'rsak, Dilnoza Kubayeva ijrosida o'ziga darddosh qidirgan, bahor shabadasidek yengil, sahna uchun jon fido qilishga tayyor Ma'sumani ko'ramiz. Har ikkala aktrisa ijrosida ham dilbarlik, o'ktamlik bor. Shuningdek, o'zbek teatriga tamal toshini qo'ygan, aktyorlar "og'a" deb hurmat qilgan Mannon Uyg'ur (Majidov) obrazi tomoshabinlarda

katta taassurot qoldiradi. Aktyor Jamoliddin Abdujabborov ijrosidagi bu obrazda ko'zlari porlab, Turkiston ahlini ma'rifatsizlik botqog'idan teatr san'ati – "sanoyi nafisa"dek mash'ala orqali yorug'likka olib chiqishni maqsad qilgan shaxsni ko'ramiz. Jamoliddin har qanday holatda ham insoniyatini yo'qotmagan Mannon Uyg'ur qiyofasini sahnada muvaffaqiyat bilan jonlantira olgan.

Spektaklda Abdulla Avloniy (Baxtiyor Yusupov), Hamza Hakimzoda Niyoziy (Doniyor Nasriddinov), Munavvar qori (Abror Saynazarov), Abduvohid qori (Tohir Saidov) kabi bir qancha jadidlار obrazi bor. Dramaturg tomonidan jadidlarning asarlaridan va xitobli maqolalaridan qahramonlar nutqiga xos jumlarlar kiritilishi, aktyorlarning yuksak saviyadagi ijrosi tufayli obrazlar qiyofasida ulug'vorlik namoyon bo'lgan. Jumladan, Tohir Saidov ijrosidagi Abduvohid qorining oila boshlig'i, diniy rahnamo, "qadimchi jadid" sifatidagi qiyofasi maslakdoshlariga qaratma millat zehniyati va kelajagi to'g'risida jonkuyarlik bilan qilgan murojaatida, kelin Ma'sumaning sahnaga chiqishi uchun o'g'li Bositxonga bergan rizoligida, ayoli Katta oyi bilan maslahatlashganida, NKVD xodimi hibsga olishga kelganida ham o'zini bosiqlik bilan tuta olishi hamda

qaytib kelmasligini bilgani holda Oycha qiziga dastro'mol va joynamoz olib chiqishni iltimos qilib "Allohgа omonatsizlar, qizim", singari gaplarida yaqqol ochilgan.

Sobiq SSSR paytida bizga Ulug' Vatan urushi deb uqtirib kelingan Ikkinchi jahon muhорabasining asl qiyofasi va xalqimizning farzandlari nima uchun qurbon bo'lganlari ikki jigarporasi, turmush o'rtog'i qatag'on qillingach, suyanchig'iga aylangan o'g'illari nomini oqlash uchun jangga ketayotgan Ma'sumaning Mannon Uyg'urga qaratma aytgan qalbni o'rtovchi hayqirig'ida namoyon bo'ladi: "Qaysi Vatan uchun, og'a? Erimni, qaynotam, qaynukamni juvonmarg qilgan Vatan uchunmi? Millat deb chiqqanlarning pok ko'ziga tuproq tortgan Vatan uchunmi?.." Ma'suma Qoriyevani tergov qilgan NKVD tergovchisi Mishevich rolini aktyor Tolibjon Mo'minov ishonarli talqin qilgan. Bu obraz orqali aybsizlarni qoralash kampaniyasining kirdikorlariga xos illatlar ochib berilgan.

"Birinchi qaldirg'och" spektaklining xotima qismidagi Ma'sumaning monologida aytilgan "Oqqush bo'lib o'ynayman-da, so'ng qo'shiq aytib, bu dunyodan bir umrga ko'zni yumaman..." satrlarini eshitgan tomoshabin hozir nimadir sodir bo'lishini sezgandek bo'ladi va


o'sha "nimadir" yuz beradi. Bedarak ketgan o'g'illarini izlab Moskvaga borgan Ma'suma Qoriyeva o'g'illari jang maydonida halok bo'lgani to'g'risidagi mash'um xabarni ko'tara olmay, o'sha joyning o'zida vafot etadi, ya'ni u "oqqushga aylanib", turmush o'rtog'i, o'g'illari yoniga uchib borib, ularni qanotlari bilan quchadi. Shu o'rinda liboslar rassomi Sevara Zunnunovanning eskizlarini alohida e'tirof etish joiz. Spektakl boshida Ma'sumani milliy bo'g'ma yoqa koketkali, yopishib turuvchi tiqma nimchali libosda ko'ramiz. Lola Elto'yevaning "Ma'suma"sidagi ko'ylak qiziltaroq atlasdan bo'lsa, Dilnoza Kubayevaning libosi novotrang shoyidan. Bu aktrisalarining yuz tuzilishi, qomatidan kelib chiqib yaratilgan bo'lsa kerak. Teatr sahnasidagi Ma'sumaning libosi 40-yillar yevropalashtirgan ayollarga xos, oqqushga aylangan Ma'sumaning libosi esa bir tomondan uzun oq ko'ylakni eslatasa, qaysidir jihatdan so'nggi yo'lga kuzatiluvchi kafanni ham eslatadi. Rassom bosh qahramonning so'nggi libosidagi metaforik unsurni nozik ilg'ab, o'z o'rinda qo'llay bilgan.

Ma'sumaning abadiyatga ketish jarayonida sahna markazi nurlanib, Mannon Uyg'ur, Hamza, Abdulla Avloniy, Munavvar qori, Abduvohid qori, Oltoy, teatrdagilar, Bositxon, Shavkatxon, Botirxonlarning ruhlar ko'rinadi. Mannon Uyg'urning: "...rost o'ynang, qalbingizdagi kirliklardan pok bo'ling. Bu dargohda nimayiki yolg'on ishlatsangiz, ruhingiz azob chekad; soxtaligingiz fosh bo'lib qolaveradi", degan da'vati yangraydi.

Darhaqiqat, ushbu spektaklini ko'rgan tomoshabin, poklanish-katarsis holati bo'lishi tabiiy. Zero, inson hayot sahnasida pok vijdon bilan yashab o'tishi shart. Spektakl ijodkorlari tomoshabinni mana shunga chorlaydi.

Nigora UMAROVA

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Turg'un Parpiyev – 1908-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. O'zSSR Lenin komsomoli ittifoqi a'zosi bo'lgan. Farg'ona shahridagi pedagogika texnikumida o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1930-yil 31-yanvarda qamoqqa olingan. O'zbek pedagogika texnikumidagi yoshlar orasida millatchilik ishlarini olib borishda, "Ko'rkalamush" nomli o'quvchilarning yashirin gazetasini tashkil etishda, uning atrofiga millatchi kayfiyatdagi yoshlarni birlashtirishda va "Botir gapchilar" tashkilotiga a'zo bo'lganlikda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 11-moddasi asosida 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi tomonidan 5 yil muddat bilan konslagerga surgun etilgan. 1989-yil 4-aprelda reabilitatsiya qilingan.

Usmonxo'ja To'xtaxo'jayev – 1896-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1919-yildan bolsheviklar partiyasiga a'zo bo'lgan. Toshkent shahridagi xotin-qizlar pedagogika texnikumida direktor bo'lib ishlagan. 1929-yil 29-sentyabrda hibsga olingan. Unga "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi degan ayblov qo'yilgan. Tashkilot tomonidan boshmachilik harakatiga rahbarlik qilish uchun qo'rboshi Rahmonqul qarorgohiga borib va shu joydan turib Sadridinning qistovi bilan Turkiston kompartiyasi 12 syezdiga ultimatum yo'llagani iddao qilinadi. RSFSR Jinoyat kodeksining 59-moddasi 2-bandi bilan ayblanib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasining Usmonxo'ja To'xtaxo'jayevni otuvga hukm qilish to'g'risidagi qarori chiqarilgan. Usmonxo'ja To'xtaxo'jayev 1989-yil 28-martda reabilitatsiya qilingan.

Mirza Abdulla Soliyev – 1889-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. 1925-yildan O'zbekiston kompartiyasi a'zosi bo'lgan. "Yangi Farg'ona" gazetasini tahririyati idorasida mudir bo'lib ishlagan. 1930-yil 31-yanvarda qamoqqa olingan. Ashurali Zohiriy bilan avvaldan aloqada bo'lgan va uning taklifi bilan "Botir gapchilar" tashkilotiga a'zo bo'lganlikda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 11-moddasi bilan ayblanib, OGPU kollegiyasining 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan mamlakatda yashash huquqidan mahrum etilgan. Uch yil muddatga Chita shahriga surgun qilingan.

Muhiddinxo'ja Shamsixo'jayev – 1890-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent shahar bog'dorchilik uyushmasida bo'lim boshlig'i bo'lib ishlagan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. U Munavvar qori Abdurashidxonovning g'oyalarini targ'ib qilishda, xususan, paxta ekishni to'xtatish zarurligi to'g'risida va sovetlarga qarshi millatchilik targ'ibotini olib borishda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4- va 10-bandlari bilan ayblanib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasining qarori bilan otuvga hukm etilgan. G'afurjon Musaxonov ishi qayta ko'rilib, 10 yil konslagerga hukm etilgan.

G'afurjon Musaxonov – 1893-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. "O'zbekiston" nomli qandolatchilik shirkati boshqaruvchisi bo'lib ishlagan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. Toshkentdagi "Uchlik" tashkiloti a'zosi bo'lishda, "Milliy istiqlol" faoliyatiga rahbarlik qilishda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4- va 10-bandlari bilan ayblanib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasining qarori bilan otuvga hukm etilgan. G'afurjon Musaxonov ishi qayta ko'rilib, 10 yil konslagerga hukm etilgan.

G'afur Said – 1900-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. U boshlang'ich maktab o'qituvchisi bo'lib ishlagan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. To'qqiz kishidan iborat "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zolari bilan birgalikda milliy istiqlol g'oyasini faol targ'ib etganlikda, dehqonlarni shu tashkilot g'oyalari ruhida tarbiyalashga da'vat qilganlikda, paxta ekin maydonlarini kengaytirishga qarshilik ko'rsatganlikda, ommani sovetlarga qarshi targ'ibot qilish guruhi a'zolariga topshiriqlar berganlikda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 17-, 58-bandlari 4- va 10-qismlari bilan ayblanib, 10 yil muddatga konslager turmasiga tashlangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor
Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
(Davomi kelgusi sonda).



NIGOH

BOQIY LAVHALAR

Bugungi avlod bir paytlar tanikli suratkash bo'lgan Sodiqli Mahkamovni deyarli bilmaydi. Ular butun umrini gazeta-jurnallarni noyob fotoasarlari bilan bezagan, qanchadan qancha tarixiy, madaniy-ma'rifiy voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, suratlarga muhrlagan, bu kasbni ijodiy tafakkur darajasiga ko'tara olgan bu iste'dod egasi bilan tanish emas.



G'afur G'ulom uchrashuvda.

Nafaqat Sodiqli Mahkamovni, No'mon Muhammadjonov, Ravil Albekov, Sirdaryo paxtaxzorlarida birinchi bo'lib ochilgan g'o'za

ko'p bo'lgan. Adabiyot gazetasida ularning ko'pini e'lon qilganmiz: askiyachi Maxsum buva, oshga sabzi to'g'rayotgan bastakor Yunus



Shoira Zulfiya va tarjimon Zoya Tumanova.

chanog'ini suratga olib, tahririyatga kechikmay yetkazish uchun poyezd-dan sakragan fotomuxbir To'rayevni ham bilishmaydi. Chunki endilikda biror holatni suratga tushirish bog'cha bolasining qo'lidani ham keladigan ish bo'lib qoldi. Ish emas, ermak deyavering.

Kompyuter inqilobidan avval suratkashlik o'ta faxrli kasb edi. Keyingi ellik, yuz yillikda olingan eng noyob suratlar yuksak badiiy ijod namunasi sifatida jahonning nufuzli fotomuzeylarida saqlanadi. Shunday suratlardan birini Parijda ko'rganman: suratkash tog'da ko'chki yuz berib, halok bo'lgan egasining yonida mung'ayib turgan vafodor it ko'zidagi tomchi yoshni tasvirga tushirgan...

Sodiqli Mahkamov ijodida ham shunday ta'sirchan, betakror suratlar

Rajabiy, Mirtemir domlani o'ychan holati, O'zbekistondagi qadrdonlari orasida huzur qilayotgan Chingiz Aytmatov, qarindoshlari davrasida gul-gul yayrab o'tirgan Mukarrama Turg'unboyeva, gullar ardodig'ida Zulfiya, o'zi to'qigan latifaga o'zi ishonib boshqalar qatori kulayotgan Said Ahmad, shlyapa va sigaretaga sadoqatli Shukur Xolmirzayev, qo'shiq kuylayotgan Botir Zokirov, adabiyot, madaniyat, teatr va kino san'atimiz darg'alarining ijodiy portretlari... Hammasini birma-bir sanab chiqish qiyin. Har biri o'ziga xos tarix.

Sodiqli Mahkamov ijodiga mansub quyidagi ikki suratlar ham muhtaram gazetxonlarda qiziqish uyg'otishiga ishonchim komil.

Ahmadjon MELIBOYEV

MUAMMO



Bugun ijtimoiy tarmoqlarda urchiyotgan va jamoatchilikning qizg'in muhokamasiga sabab bo'layotgan mavzulardan biri – kvadrobika harakati. Kvadrobika hozir ayrim yoshlar orasida mashhurlashgan submadaniyat bo'lib, mohiyati hayvonlarga taqlid qilishdan iborat. Kvadrobika izdoshlari, odatda, o'zlari taqlid qilayotgan hayvon niqobini kiyib, to'rt oyoqlab harakat qiladi.



TO'RT OYOQLI... BOLALAR

Ular it bo'lib vovullashi, mushuk bo'lib miyovlashi mumkin, ba'zan ular qutirgan hayvonga taqlid qilib o'tinchilarga tashlanib qolishi ham mumkin...

Kvadrobika dastlab sport turisifatida paydo bo'lgan, desam ishonmassiz. Ammo bu haqiqat. Yaponiyalik yengil atletikachi Kenichi Ito uning asoschisi hisoblanadi. U 2000-yillarda to'rt oyoqlab yugurish bilan shug'ullangan. Biroq vaqt o'tgani sari bu mashg'ulot sportdan submadaniyatga evrilib ulgurd. Achinarlisi, keyingi vaqtlarda "to'rt oyoqlab" yurishni odat qilganlar poytaxtimizda ham onda-sonda bo'lsa-da, uchrab turibdi. O'tgan yili Toshkent shahrida hayvon niqobini kiyib, turli harakatlar bilan unga taqlid qilayotgan bola videosi ijtimoiy tarmoqda keng tarqaldi, ko'p vaqt o'tmay yana bir o'spirin it niqobida yo'lovchilarga hujum qildi.

"Новые известия" nashri sharhlovchisi Viktor Levin Rossiyada kvadrobierlar "yurish"ining ommalashishi sabablari bo'yicha so'rovnomaga o'tkazishga qaror qiladi. Uning ta'kidlashicha, buning boisi ruslarning uy hayvonlarini oila a'zosi sifatida qabul qilishi bilan bog'liq. So'rovnomaga natijalariga ko'ra, respondentlarning 42 foizi mushuk va 34 foizi uyda it boqar ekan. Ularning aksariyati bu hayvonlarga do'st sifatida, yana bir qismi esa xuddi o'z bolasi sifatida qarashini ma'lum qilgan. Jurnalistning xulosasi shunday bo'ldi: oiladagi hayvonlar va bolalar kattalar e'tiborini jalb qilish uchun o'zaro kurashmoqda.

Bugun ayrim ota-onalar bilib-bilmasdan farzandiga cheklov va taqiqlar sonini ko'paytirib yuboryapti. Natijada bola erkinlik istagida o'z ota-onasidan uzoqlashib qolmoqda, deydi Toshkent shahridagi 282-maktab bolalar ruhiyatshunosi Barnogul Fayziyeva. – 10-12 yoshli o'smirlarda ota-onasi o'rnatgan taqiqlardan qochish istagi ortib boradi. Ya'ni ota-onaning ortiqcha nazorati ham bola shaxsiyatining shakllanishi va

rivojlanishiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Chunki bu yoshda ongida ruhiy o'zgarishlar kechayotgan bola ko'proq erkinlik istashi tabiiy.

Demak, bolalarda kvadrobierlikka moyillik paydo bo'lishi sabablaridan biri ham aynan oiladagi muhitga borib taqaladi. Ya'ni bolaning nazarida ona undan ham ko'ra mushukka mehribonroq, ota esa ko'ppakka e'tibor qaratayotgandek tuyuladi. Shu bois unga hayvon bo'lish osonroq, yaxshiroq ko'rini boshlaydi. Eng asosiysi, hech kim uy hayvonidan yaxshi o'qish, uy ishlarini bajarish va o'z kelajagi haqida o'ylashni talab qilmaydi...

Bundan tashqari, kamdan kam holda ushbu holat ruhiy kasallik oqibati bo'lishi ham mumkin. Bu xastalikning belgilaridan biri shuki, biror jonotning harakati va ovozi bolaning butun ijtimoiy hayotini egallab oladi va oxir-oqibat u o'zini aynan o'sha hayvondan his qila boshlaydi. Bunday holatda zudlik bilan mutaxassis shifokorga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Quvvatbek Kamoliddinov, o'quvchi: – Ijtimoiy tarmoqda hayvonlarga taqlid qilayotgan bolalar haqida ko'p lavhalarini kuzatdim. Men odam bolasining bunday beo'xshov qiliqlar qilishini, shuni o'ziga ravo ko'rishini tasavvur ham qilolmayman. Chunki aqli-hushi joyida, sog'lom fikrlaydigan odam bunday bachkanalikni o'ziga ep ko'rmaydi. Menimcha, o'smirlar bu harakatlarni faqat ijtimoiy tarmoqlarda tezroq mashhur bo'lish ilinjida qilishyapti. Buning ortida boshqa biror maqsad bor, deb o'ylamayman.

Bolaning o'yin va voqealik o'rtasidagi chegarani yo'qotib qo'yishi tashvishli, deydi Milliy gvardiyaning Toshkent shahar bo'yicha boshqarmasi bolalar bilan ishlash bo'limi katta inspektor-psixologi kapitan Muzaffar Turdiyev. – Uzoq vaqt davomida begona qiyofada yurishni istash, yangi qiziqish tufayli o'qishni ham bir chetga surib qo'yish va hatto o'zga odamlarga hujum qilish kabi holatlar bu muammo xususida jiddiroq bosh

qotirish kerakligidan dalolat beradi. Bu yerda muammo kvadrobikada emas, bunday xatti-harakatlarning ildizi chuqurroq, aslida. Biz shuni o'rganish va bu kabi harakatlar yanayam urchib ketmasligining oldini olish maqsadida Mirobod tumanidagi maktab va bog'chalarda nosog'lom trendga qarshi targ'ibot tadbirlarini o'tkazdik. Ota-onalar va o'quvchilar bilan muloqotlar davomida bolalarga jamoat joylarida o'zini tutish qoida-lari, ijtimoiy tarmoqlardagi taqidlarni takrorlamaslik yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Tadbirlar davomida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq, ota-onalar yoki ularning o'rini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajar-maslik, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishining huquqiy oqibat-lari haqida ogohlantirildi.

Salomat Pardayeva, uy bekasi: – Qizim uch yoshdan oshgan. U mushuk kabi miyovlashni, uning harakatlari takrorlashni yoqtiradi. Hatto to'rt oyoqda yurib kelib oyoqlarimga suykalanadi. Men ham uni xuddi mushuk kabi erkalatishga odatlangan edim. Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda kvadrobierlar haqida berilayotgan ma'lumotlar bilan tanishgach, to'g'risi, yuragimga vahima oraladi. Hozir qizimni boshqa qiziqroq o'yinlarga jalb qilib, unga ko'proq vaqt ajratishga harakat qilayman. Xayriyat, qizim ham avvalgi odatini tark eta boshladi...

Jamiatimizga chetdan kirib kelayotgan g'ayritabiiy odat va qiliqlar borgan sari ko'payib, yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Mana shunday sharoitda bolalarimizning ruhiyatini bunday illatlardan himoya qilishga jiddiy ahamiyat qaratishimiz lozim. Tarbiya biz uchun hayot-mamot masalasi ekanini aslo unutmaylik!

Vasila HABIBULLAYEVA

TILBILIM

"MUJMAL" ASLI MUJMALMI?

Tilimizga arab tilidan kirgan mujmal so'zini biz hozirgi paytda "lanj, mavhum, na u yoqlik, na bu yoqlik, tushunarsiz, tayinsiz" ma'nolarida ishlatamiz. Lanj, kesib gapirmaydigan, ezma kishilarga nisbatan "bu mujmal odam" deymiz. Holbuki, bu so'zning tub ildizi "qisqa", "lo'nda" ma'nolarida keladi. Bu ma'no so'zning hozirgi ma'nosiga mutlaqo qarama-qarshi.

Alisher Navoiy asarlarida ham mujmal so'zi "qisqa" ma'nosini ifodalagan. Masalan, "Sab'ayi sayyor" dostonida shunday misralar bor:

*Dostonlarki aytgim mujmal,
Manga yo'q hech anda bahs-u jadal.*

Mazmuni: Men bu dostonlarni shunchalik qisqa bayon qildimki, so'zlarim orasida birorta ham bahsga sabab bo'ladigan, tushunilmaydigan o'rni yo'q.

Shuningdek, arabcha mujmal so'zining "yig'indi" ma'nosi ham bor-ki, bu jumla so'ziga to'g'ri keladi.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Bugungi kunda er va xotin o'rtasidagi munosabatlar anchayin nomutanosib pallaga kelib qolganiga o'xshaydi. Oilada ayol o'zining o'rni yo'qotib qo'yayotgani, erni hurmat qilmayotgani oddiy holga aylanib qolmoqda.

Milliy fojiaga aylanayotgan oilaviy ajrimlar dilimizni xufton qilishi bilan erga, nima yoki kim tufayli ajrim bo'layotgani va uning sababi kabi masalalarga yechim topishga ham undaydi.

Buzilib ketayotgan turmushga jimgina tomo-shabin bo'lib o'tirgan ota-ona aybdormi yoki oddiy anglashilmovchilikni olamshumul muam-moga mengzayotgan yoshlarning o'zi?

Ammo ajrimning bosh sababi oyma-oy erkaklar tomonidan to'lanishi muqarrar bo'lgan aliment puli ekanligi negadir hech kimning xayoliga kelmaydi.

Bir kuni ish yuzasidan Fuqarolik sudiga bordim.

Bordim-u, bir mahalla xotin-xalajni ko'rib, hayron qoldim.

Navbatim kelishini kuta boshladim, shu paytda beixtiyor ko'p narsaning guvohi bo'lib qoldim. Ayollarning baqir-chaqiri, shang'illashlaridan boshim og'rib ketdi. Andishani yerga ko'mgan va ayollarning gapini eshitgan ilon po'st tashlashi aniq. "Erimning xorijga chiqolmasligi uchun shikoyat arizasi bilan keldim. Oyog'imga bir tiz cho'ktiray!"

KIM AJRASHAMAN DESA, O'SHA ALIMENT TO'LASIN!



"Men erimni besh kunga qamatmoqchiman. Oxirgi paytda aliment pulini to'lolmay qoldi. Maza qilib yeb-ichib yurgandim, shuni ham ko'p ko'rdimi, bilmayman, pul bermaydigan bo'lib oldi. MIBga murojaat qilgandim, uyidagi gilamigacha sotib, aliment pulini berib ketdi. Nimasini sotsa sotsin, mardikorlik qilib bo'lsa ham pul olib kelsa bo'lgani..."

Bu gaplarni eshitib, boshimga tog' qulagandek bo'ldi. Ulardan birining o'rniga xotinimni qo'yib

ko'rdim. Ajrim paytida bir igna ustida talashgani, o'z uyidan millionlab pul o'g'irlab, xorijga ketib qolgani, voyaga yetmagan bola tarbiyasi bilan shug'ullanmagani uchun bekor qilingan aliment to'lovini qayta tiklatib, kamiga yana bir necha million so'mni bo'ynimga qarz qilib ilgani yana ko'z o'ngimda gavdalandi. Go'yoki bor nafratimga ro'paramdagi ayollar sababchidek beixtiyor ularga savol berdim: "Aliment to'lovi bo'lmaganda, ajrash-masingizmi?"

Javob esa quyidagicha bo'ldi: "Yo'q, albat-ta, aliment bo'lmaganda aslo ajrashmasdik!! Yaxshiyam baxtimizga shu aliment bor ekan, qizlarimizga ham zo'r bo'ldi, erga tegib olib, bitta-ikkita tug'ib olishadi-da, yashamayman, deb alimentga berishadi, vassalom, ham bolani olishadi, ham aliment pulini. To'g'ri-da, xo'jayin nimaga kerak?! Xohlagan joymizga boramiz, xohlagan libosimizni kiyamiz!"

Bu ayollarni oilaning tanazzulga uchrashi emas, bolaning yetim qolishi emas, oyma-oy olinishi muqarrar bo'lgan aliment puli shunchalik qiziqtiradimi?! Bas, bu masalalar bir o'ylab ko'rilishi, alimentni esa xoh erkak bo'lsin, xoh ayol, ajrashaman degan taraf to'laydigan qilish kerak. Shuni ishonch bilan ayta olamanki, shundagina oilaviy ajrimlar soni keskin qisqarishi aniq.

Halim MALIK Facebook

Jadid

adabiy, badiiy va ijtimoiy-hadqiqat gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI

Bosh muharrir: Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir: Muhayyo Rustam qizi

Sahifalovchilar: Erkin Yodgorov Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 8 337
Lotin yozuvidagi adadi – 12 627
Media kuzatuvchilar – 37 983
Buyurtma: G – 340.
Hajmi: 4 bosma qatlam, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@xat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz